

**RESPUBLIKA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT MARKAZI
IJTIMOIY-MA'NAVIY TADQIQOTLAR INSTITUTI**

AVAZBEK SHERMATOV

**JAHON MAMLAKATLARI
MAFKURALARIGA BIR NAZAR**



TOSHKENT – 2023

Shermatov A.

Jahon mamlakatlari mafkuralariga bir nazar[Matn] / A.Shermatov. –
Toshkent: «MERIT PRINT», 2023. – 66 b.

Mas’ul muharrir:

Olimjon Davlatov – Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti direktori

Taqrizchilar:

Sarvarjon G‘afurov – Siyosiy fanlar doktori, professor

Bo‘ri Qodirov – Tarix fanlari nomzodi

Mazkur risolada turli mamlakatlarning mafkuralari va mafkura sohasidagi siyosati atroficha tahlil qilinib, muhim xulosalar qilingan. Ushbu mamlakatlarda mafkura masalasiga berilayotgan e’tibor, bu boradagi institutsional yondashuvlar haqida kerakli ma’lumotlar beriladi. Mintaqaviy murakkab muammo bo‘lmish Kashmir mojarosida mafkuralarning o‘rni, mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurash masalasi keng tahlil qilinadi. Shuningdek, risolada bugungi kunda dunyo mafkuraviy makonida ta’sir kuchi baland va o‘z o‘rniga ega dominant mafkura va g‘oyalarning qisqacha tahlili berilishi, kitobxonlarda bu borada kerakli tushunchalarning shakllanishiga xizmat qiladi.

Risola keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan

© Shermatov A.

© MERIT PRINT

© Toshkent, 2023



Ilmiy-ommabop nashr

AVAZBEK SHERMATOV

JAHON MAMLAKATLARI MAFKURALARIGA BIR NAZAR

Noshir: Zayniyev F.

Muharrir: Axmedova M.

Dizayner: Zayniyev M.

Kompyuterda tayyorlovchi: Shodmonov S.

Nashriyot litsenziya raqami № 005073-06 08.02.2016 y.

«MERIT PRINT» nashriyoti

100000, Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani,

Sh.Rustaveli ko'chasi, 91-uy.

Tel.: +998 90 000 06 63

Bosishga 07.12.2023-yilda ruxsat etildi. Bichimi 84x108. ^{1/16}
«Times New Roman» garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i 4,1 Buyurtma № 47

Adadi 500 nusxa.

KIRISH

Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi murakkab ko'rinishga ega bo'lib, muntazam o'zgarib, rivojlanib bormoqda. Avval aniq belgilangan g'oyalarni, qarashlarni va qoliplarni o'zida mujassam etgan mafkuralar bugun mutlaqo o'zgacha ko'rinishda insonlar ongida o'z faoliyatini davom ettirmoqda. Hozirgi davrda dunyo g'oyalar makonida ko'plab bir-biriga zid, turli xil mafkuralar va g'oyaviy qarashlar mavjud.

Bugun ko'pchiligmizda savol tug'ilishi tabiiy: aslida mafkura bilan yashash qanchalik muhim? Balki mafkurasiz yashash eng maqbul yo'ldir? Shu kabi savollar hanuz aktualligini yo'qotgan emas. Biroq, holisan aytganda, hech qanday mafkuraga ega bo'limgan alohida shaxs yoki jamiyat bo'lishi mumkinligi haqidagi tasavvurlar haqiqatga mos kelmaydi. Mafkura va g'oyalar insoniyat tarixinining dastlabki davrlaridan beri mavjud bo'lib kelgan. Ammo qadim davrlarda insonlar buni hozirgi kundagidek tushunib etishmagan. Umuman olganda, har bir inson qanday to'g'ri yashash haqida o'z tasavvuriga ega bo'lib, buni ham alohida mafkura sifatida sanash mumkin. Hattoki jinoiy olam ham o'z "tushunchalar"lari bilan yashaydi va bu ham o'ziga xos mafkuradir. Jinoyat olami "tushunchalar"ga rioya qilmaslikning kuchayishi jinoyatchilar orasida ham salbiy qabul qilinib, tartibsizliklar boshlanishiga olib keladi. Jamiyat miqyosida g'oyalarning bo'linishi, har kim jamiyat va insoniyat uchun nima yaxshi va yomonligi haqida o'z tasavvuriga ega mafkuraviy anarxiya sharoitida mutloq boshboshdoqlik boshlanadi. Jamiyatning katta qismi ishonch bilan, ixtiyoriy ravishda umumiy, to'g'ri asoslangan mafkuraga ergashsa, ayni muddao bo'ladi.

Bugun mamlakatimizda barcha sohalarni rivojlantirish yo'lida amaliy ishlar olib borilmoqda. Jamiyat rivojiga xizmat qiluvchi turli sohalar qatorida aholining ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarashini yuksaltirish, jamiyatni birlashtira oluvchi mafkura masalasiga ham

birdek e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega. Dunyo shiddat bilan rivojlanayotgan bugungi murakkab davrda dunyoning mafkuraviy poligonlaridagi vaziyatdan, turli-tuman g'oyalar, jahon mamlakatlarining mafkuralari va mafkura sohasidagi siyosiy tajribalaridan boxabar bo'lish, bu boradagi foydali jihatlarni mamlakatimizda amaliyatga joriy etish zamon talabiga aylandi. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoev ta'kidlaganidek, “*geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarni muntazam o'rganish, terrorizm, ekstremizm, aqidaparastlik, odam savdosi, narkobiznes va boshqa xatarli tahdidlarga qarshi samarali g'oyaviy kurash olib borish hamda bu borada xalqaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish mamlakatimizda yangi ma'naviy makonni shackllantirish yo'lida maqsadga muvofiqdir*”¹. Shu maqsadda mazkur risolada O'zbekistonning strategik hamkorlari bo'lgan AQSh, Xitoy, Rossiya kabi mamlakatlarning mafkuralari va mafkura sohasidagi siyosati haqida atroflicha so'z yuritilib, o'rganishlar natijasiga ko'ra muhim xulosalar qilinadi. Ushbu mamlakatlarda mafkura masalasiga katta e'tibor berilishi, bu borada keng ko'lamli ishlar qilinishi haqida bat afsil ma'lumot beriladi. Risolada shuningdek, Markaziy Osiyoga yaqin bo'lgan Janubiy Osiyo mintaqasi xavfsizligiga jiddiy tahdid tug'diruvchi Kashmir mojarosida mafkuralarning o'rni, bunday murakkab vaziyatda mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurash masalasi ham keng tahlil qilinadi. Risolada hozirgi kunda dunyo mafkuraviy makonida ta'sir kuchi baland va o'z o'rniga ega dominant mafkura va g'oyalar ham qisqacha tahlil qilinib, bu borada kerakli xulosalar olinadi.

MUNDARIJA

Kirish	3
Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi. Mafkuralar targ'iboti..	5
Amerika Qo'shma Shtatlari mafkurasizmi ?.....	16
Xitoy: mafkura – siyosat asosi.....	26
Rossiya: vatanparvarlik – yetakchi mafkura	38
Kashmir mojarosida mafkuralar kurashi.....	48
Xulosa	58
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:	62

¹ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston – taraqqiyot strategiyasi/ “O'zbekiston” nashriyoti, T., 2022 y., 271-bet.

ПРОДВИЖЕНИИ В СТРАНАХ МИРА КОНЦЕПЦИИ "СООБЩЕСТВА ЕДИНОЙ СУДЬБЫ ЧЕЛОВЕЧЕСТВА" // Известия Восточного института. 2021. №4 (52). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/mesto-i-rol-institutov-konfutsiya-v-populyarizatsii-i-prodvizhenii-v-stranah-mira-kontseptsii-soobschestva-edinoy-sudby>.

22. Грузинов Иван Ильич. Возможности и проблемы экспорта современной китайской идеологии // Общество и государство в Китае. 2018. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/vozmozhnosti-i-problemy-eksporta-sovremennoy-kitayskoy-ideologii>


23. Наказ уложенной комиссии Екатерины II: <https://rusistori.ru/rossiyskaya-imperiya/nakaz-ulozhennoy-komissii-ekateriny-ii>

24. Мартюшов Л.Н. Государственная идеология Российской Федерации: какой ей быть? // Вестник Уральского института экономики, управления и права. 2018. №2 (43). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/gosudarstvennaya-ideologiya-rossiyskoy-federatsii-kakoy-ey-byt-1>

25. Путин: патриотизм – “это и есть национальная идея”, URL: <https://tass.ru/politika/2636647>

26. Голенкова Зинаида Тихоновна, Еремеев Александр Евгеньевич, Идеология евразийства: между Востоком и Западом // Общество и право. 2006. №4 (14). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ideologiya-evraziystva-mezhdu-vostokom-i-zapadom>

27. «Россию хотят превратить в Москвию». Николай Патрушев — о Западе и Украине, “Аргументы и Факты” № 1-2. Холодный просчёт. Как морозы проверяют коммунальное хозяйство на прочность ,11/01/2023



BUGUNGI DUNYONING MAFKURAVIY MANZARASI. MAFKURALAR TARG'IBOTI

Mafkuralar insoniyat tarixining uzoq muddatli davrlarida asosiy rolni o‘ynaydi va tarixan to‘g‘ri, zamon va yangi vogelikka mos keluvchi mafkurani qabul qiluvchi xalqlar qoloq mafkuraga ega xalqlar oldida ustunlikka ega bo‘lishadi va o‘z rivojlanishida yangi bosqichga chiqadilar¹.

Hozirgi kunda dunyo mafkura bozorida turli-tuman g‘oya va mafkuralar taklif qilinib, iste’mol qilinmoqda. Ular orasida bozor iqtisodiga asoslangan liberal demokratik mafkura ta’sir ko‘lamni kattaligi bilan ajralib turadi. Keyingi o‘rnarda kommunizm, diniy mafkuralar, millatchilik (vatanparvarlik) mafkuralari, populizm, konservativizm, feminism va boshqa bir qancha mafkuralar turadi.

Mafkura makonida ayni damda turli asil mafkuralar qorishmasidan hosil bo‘lgan aralash mafkuralar ham mavjud. Bular qatoriga erkin bozorga katta imkoniyatlar yaratgan xitoycha xususiyatlarga ega kommunizm, bozor iqtisodiyoti bilan birgalikda diniy qadriyatlar kuchli Turkiyani misol qilib keltirishimiz mumkin. Ayni paytda dunyo miqyosida asosan ikki mafkura – g‘arb mafkurasi (liberal demokratiya) va qizil mafkura (kommunizm mafkurasi) raqobat qilmoqda².

Bugun jahonda aksariyat iqtisodiy rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar siyosatiga liberalizm mafkurasi katta ta’sir o‘tkazmoqda. Liberalizm bu davlatlarning konstitutsiyaviy g‘oyasi va davlat siyosatining ham asosi bo‘lib xizmat qilmoqda. Insonlar ongida liberalizm erkin va farovon hayotni ta’minlovchi eng maqbul mafkura sifatida shakllanib ulgurdi. Biroq ko‘plab erkinliklarni yaratish bilan birga liberalizmning bir qator kamchiliklari ham mavjud. Uning bosh qadriyati bo‘lgan erkinlik ayni paytda uning asosiy muammosi hamdir.

¹ Воин А. М. Современные идеологии // Bulletin CONCORDE 2019, №4-5. – 86 бет.

² O’sha manba – 86 bet.

Klassik liberalizm mafkurasiga ergashish o'tgan vaqt davomida jamiyatning qutblashuviga olib keldi. Hech narsa bilan cheklanmagan liberalizm siyosat va iqtisodda ijtimoiy uyg'unlik va adolatni cheklashda muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Erkinlik tushunchasi liberalizm mafkurasida aniq belgilab qo'yilmagan va yanada aniqroq ta'rifga muhtoj. Aslida har bir shaxs qanday shaxsiy erkinliklarga ega bo'lishi kerak va jamiyat farovonligi uchun qaysi erkinliklardan voz kechish kerak? Davlatning shaxs ijtimoiy va shaxsiy hayotiga aralashishi mumkin bo'lgan chegaralar qayerda? Shu kabi murakkab savollarga liberalizm g'oyasida aniq javoblar mavjud emas.

Liberalizm insonlar erkinligini ta'minlash, ularga katta imkoniyatlar taqdim etish bilan birga boshqa bir mafkura – iste'molchilik mafkurasi paydo bo'lishiga sababchi bo'lmoqda. Liberalizm mafkurasi zamonaviy iqtisodiy rivojlangan jamiyatda haddan ziyod iste'molchilikka moyillik kayfiyatini keltirib chiqarmoqda. Bu esa o'z navbatida iste'molchilik ma'naviy-axloq masalasida va atrof-muhitga bo'lgan munosabatda keltirib chiqaradigan salbiy oqibatlarning oldini olishda zarur choralar ko'rishni taqozo etadi.

"Iste'molchilik mafkurasi – bu isrofgarchilik va chegarasizlik xususiyatiga ega bo'lgan, insonning tabiiy moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga emas, balki uning ijtimoiy mavqeini saqlab qolishga yoki undan ham yuqori darajaga ega bo'lishga qaratilgan modiyatga asoslangan mafkura hisoblanadi"¹.

Liberalizm dunyoning etakchi mafkurasi sifatida bugungi global muammolarga bo'lgan aniq pozitsiyalarini belgilab olishi zarur. Qashshoqlik muammosi, muntazam beqarorlik faktori hisoblangan dunyoning notinch hududlari aholisining oziq-ovqat ta'minoti, iqtisodiy muammo, va eng muhimi, insonning ma'naviy-axloqiy

12. China lists US human rights abuses worldwide, rebuts Washington's report, *Global Times*, URL: <https://www.globaltimes.cn/page/202204/1259255.shtml>
13. National Ideologies and the Kashmir Conflict, <https://www.worldpoliticsreview.com/national-ideologies-and-the-kashmir-conflict/>
14. Pakistan's Endgame in Kashmir, Husain Haqqani, URL: <https://carnegieendowment.org/2003/07/01/pakistan-s-endgame-in-kashmir-pub-1427>

Rus tilida:

15. Валерий Федоров: Любую идеологию опасно объявлять государственной, Российская газета – Федеральный выпуск №. 6749, <https://rg.ru/2015/08/13/fedorov.html>
16. Соколова Елена Павловна. Технологии внедрения идеологий в массовое сознание // Управленческое консультирование. 2011. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/tehnologii-vnedreniya-ideologiy-v-massovoe-soznanie>
17. Скориков Владислав Виталиевич, Мансур Дария Нумман ПУТЬ КИТАЙСКОЙ НАРОДНОЙ РЕСПУБЛИКИ К ЭКОНОМИЧЕСКОМУ ЧУДУ // ЭСГИ. 2022. №1 (33). 91 б. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/put-kitayskoy-narodnoy-respubliki-k-ekonomicheskому-chudu>
18. Зотов Дмитрий Александрович. Современный либерализм: проблемы и противоречия // Вестник ЗабГУ. 2011. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sovremennyy-liberalizm-problemy-i-protivorechiya>
19. Запад в точке бифуркации: современный популизм как вызов либеральной демократии, URL: <https://russiancouncil.ru/analytics-and-comments/analytics/zapad-v-tochke-bifurkatsii-sovremennyy-populizm-kak-vyzov-liberalnoy-demokratii/>
20. Как устроен великий китайский файрвол, URL: <https://www.vedomosti.ru/opinion/articles/2018/04/25/767754-kak-ustroen-faeirvol>
21. Бояркина Анна Владимировна. МЕСТО И РОЛЬ ИНСТИТУТОВ КОНФУЦИЯ В ПОПУЛЯРИЗАЦИИ И

¹ Иванова М.В. Основные направления политики социального государства в отношении идеологии потребительства // Вестник ЧитГУ. — 2008. — №6 (51). — 170 с.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон – тараққиёт стратегияси/ “O’zbekiston” нашриёти, Т., 2022 й.
2. Воин А. М. Современные идеологии // Bulletin CONCORDE 2019, №4-5.
3. Иванова М.В. Основные направления политики социального государства в отношении идеологии потребительства // Вестник ЧитГУ. — 2008. — №6 (51).
4. Xuetong Yan. *Leadership and the Rise of Great Powers*. Princeton: Princeton University Press. 2019.
5. John J Schwarzmantel. Ideology and Politics. London, Sage Publications Ltd, 2008.
6. Кожинов В. В. Коренные различия России и Запада. Идея против закона. – М. : Алгоритм, 2014.
7. Зиновьев А. А. Планируемая история: Запал. Посткоммунистическая Россия. Гибель русского коммунизма. – М. : ACT, 2009.
8. Конституция Российской Федерации : // Официальный интернет-портал правовой информации. – URL: <http://publication.pravo.gov.ru/Document/View/0001202007040001?index=4&rangeSize=1>
9. Chinese Values vs. Liberalism: What Ideology Will Shape the International Normative Order?, Xuetong Yan, *The Chinese Journal of International Politics*, Volume 11, Issue 1, Spring 2018.

Internet manbalari:

Ingliz tilida:

10. After India Revoked Its Autonomy, Kashmir Sees Repression and Militancy Rise, URL: <https://www.worldpoliticsreview.com/after-modi-revoked-article-370-kashmir-sees-repression-and-militancy-rise/>
11. China Appears to Understand the Risks in Kashmir More Than India or Pakistan, URL: <https://www.worldpoliticsreview.com/china-appears-to-understand-the-risks-in-kashmir-more-than-india-or-pakistan/>

qashshoqlikka yuz tutishi kabi masalalarga liberalizm mafkurasida aniq javob mavjud bo‘lishi kerak¹.

Bugungi dunyo mafkuraviy makonida liberalizm bilan birga “qizil” mafkura ham deb nomlanuvchi sotsializm va kommunizm g‘oyalari o‘ziga xos o‘ringa ega. XX asrda jahonning aksariyat mamlakatlarida sotsializm hukmon mafkuraga aylandi. Ayniqsa, Sovet ittifoqi, Sharqiy Yevropa va Xitoyda bu g‘oya hukmon kuch mavqeiga ega bo‘ldi. Biroq, Sobiq ittifoq qulashidan keyin sotsializm mafkura sifatida o‘z jozibadorligini va tarafdarlarini yo‘qotdi. Shunday bo‘lsada, bugun bu mafkura ko‘pgina davlatlarda hamon etakchi siyosiy kuch ekanligicha qolmoqda. Ayniqsa, Lotin Amerikasi mamlakatlari - Venesuela, Boliviya, Kuba va Sharqiy Osiyo davlatlari – Xitoy va Vietnam hanuzgacha sotsialistik hukumatlariga ega. 1980-yillarning oxirida Xitoy kabi sotsialistik mamlakat bo‘lgan Vietnamda ham iqtisodni erkinlashtirish, bozor qoidalarini joriy etish bilan bog‘liq islohotlar amalga oshirildi. Bu islohotlar sezilarli iqtisodiy o‘sishga olib keldi va Vietnam dunyodagi eng tez rivojlanayotgan iqtisodiyotlardan biriga aylandi.

Hozirda muttasil qudrati o‘sib borayotgan va AQShdan keyingi eng yirik xalqaro kuch hisoblangan Xitoyning mafkuraviy qadriyatları dunyo siyosatida liberalizm g‘oyasi o‘rnini egallashi haqidagi fikrlar ham oxirgi paytlarda ko‘p bildirilmoqda². Bunday fikrlar paydo bo‘lishiga Xitoyning barqaror iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlari, xalqaro siyosatda tinchlik ruhida birgalikda rivojlanish istagini bildirishi, zamonaviy texnologiyalar sohasida ulkan muvaffaqiyatlarga erishayotgani, pandemiyaning dastlabki davrlarida Yevropa davlatlari va AQShdan farqli ravishda virusni jilovlashda muvaffaqiyatli harakat qilgani kabi ko‘plab sabablarni keltirishimiz mumkin. Ammo bugungi kunda liberalizm g‘oyasi xalqaro maydonda qiyin davrni boshdan

¹ Зотов Дмитрий Александрович Современный либерализм: проблемы и противоречия // Вестник ЗабГУ. 2011. №5. – 89 с. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sovremennyy-liberalizm-problemy-i-protivorechiya>

² Xuetong Yan. *Leadership and the Rise of Great Powers*. Princeton: Princeton University Press. 2019. - 131–136 p.

kechirayotgan bo‘lsada, hanuzgacha xalqaro maydonda eng katta ta’sir kuchiga ega global mafkuraligicha qolmoqda. Ayni paytda uning o‘rnini egallay oladigan darajadagi raqobatchi mafkura mavjud emas.

Umuman olganda, bugun dunyoda sotsializm mafkurasining holati murakkab va rang-barang bo‘lib, turli mamlakatlar va mintaqalarda turli darajadagi ommaboplikka va ta’siriga ega. Bu g‘oya tarafdforlari muttasil o‘sib borayotgan bir vaziyatda uning dunyo mafkura maydonidagi o‘rni va imkoniyatlarini past baholash to‘g‘ri bo‘lmaydi.

So‘nggi paytlarda dunyo mafkuraviy makonida yangiliklarga xayrihox liberalizm bilan birga konservativizm mafkurasi tarafdforlari ham ko‘payib bormoqda. Konservativizm asosini tabiiy ravishda shakllangan tartib-qoidalarning daxlsizligi, ma’lum bir aholi qatlaming tabiiy ierarxiyasi va imtiyozlari, oila, din asoslari bo‘lgan axloqiy tamoyillarning o‘zgarmasligi tashkil qiladi.

XX asrda konservativizm liberalizmning ko‘plab qadriyatlarini tan olishga majbur bo‘lib, jamiyat hayoti va siyosatdagi yangicha g‘oyalarga toqatliroq munosabatda bo‘la boshladi. Shunday bo‘lsada, uning asosida qonuniylikni, davlat intizomi va tartibini mustahkamlash, radikal islohotlarning qabul qilinmasligi kabi g‘oyalar saqlanib qoldi.

Konservativizm mafkurasida ham zamon bilan hamnafas rivojlanishga intilish bo‘lib, bu uning zamonaviy neokonservativizm yo‘nalishida namoyon bo‘ladi. Neokonservativizm – konservativ yondashuvning an‘anaviy qadriyatlarini zamonaviy postindustrial jamiyat voqeligiga moslashtirishga urinishdir. Oil, din, axloq, shuningdek, ijtimoiy barqarorlik, fuqarolar va davlatning o‘zaro javobgarligi, inson huqularining hurmat qilinishi kabi ma’naviy qadriyatlarni himoya qiluvchi neokonservativizm o‘zining ko‘plab tarafdforlariga ega. Konservativizm mafkurasiga asoslanuvchi partiyalar AQSh (Respublikachilar partiyasi), Yaponiya (Liberal-konservatorlar partiyasi), Angliya (Konservativ partiya) kabi ko‘plab mamlakatlarda faoliyat olib boradi. Ushbu g‘oyaviy oqimning tarafdforlari soni esa kundan-kunga oshib bormoqda.

yechim izlashni davrning o‘zi taqozo qilmoqda. Kashmir masalasi Hindiston, Pokiston va Xitoy mafkurasi, g‘oyaviy siyosatida muhim o‘rin tutishini inobatga olsak, masalani kuch ishlatish yo‘li bilan hal qilib bo‘lmasligi yanada oydinlashadi.

So‘ngso‘z o‘rnida ta’kidlash kerakki, bugun aksariyat mafkuralar boshi berk ko‘chaga kirgan. Bunga sabab – dunyo shiddat bilan o‘zgarib bormoqda. Davlat mafkurasi masalasida ehtiyyotkorlik bilan ish tutish bugun har qachongidan ham muhim. Uzoq muddat hukmronlik qilgan mafkuralar jiddiy o‘zgarishlarsiz o‘zining etakchi ta’sir kuchini yo‘qotib bormoqda. Aksincha, liberalizm va xitoycha sotsializm kabi mafkuralar jiddiy o‘zgarishlarga uchrasada yashashda davom etmoqda. Shunday ekan, mafkuralarni davr talabidan kelib chiqib, o‘zgartirib borish muhim ahamiyatga ega.

Bir so‘z bilan aytganda, xalqning farovon hayotini ta’minlashga xizmat qiladigan iqtisodiy siyosat Xitoy mafkurasining muvaffaqiyatini ta’minlashga xizmat qilgan asosiy omillardan biri sanaladi. Jamiyatning iqtisodiy ravnaqiga xizmat qiluvchi mafkuraviy g‘oyalar qiyin sinovlarga bardosh berishi mumkinligi Xitoy tajribasi misolida yana bir bor o‘z isbotini topdi.

Rossiya mafkuraviy makoni haqida gap ketar ekan, u bugun o‘ta murakkab davrni boshdan kechirayotganini ta’kidlash lozim. Ukraina inqirozi mamlakat va xalq hayotining tobora yomonlashuviga, insonlarning ertangi kunga va mafkuraga bo‘lgan ishonchi kamayishiga sabab bo‘lmoqda. Yetakchi mavqega ega bo‘lgan vatanparvarlik g‘oyasi ham mavjud og‘ir sharoitda o‘z tarafdorlarini yo‘qotmoqda. Sababi, vatanparvarlik endilikda harbiy safarbarlikni anglatmoqda. Shu paytga qadar xalqaro maydonda ma’lum ta’sir kuchiga ega bo‘lgan “rus dunyosi” g‘oyasi ham urush tufayli o‘z aktualligini yo‘qotdi. Tarixan doimo ma’lum bir mafkura ta’sirida yashab kelgan rus xalqi bugun mafkuraga har qachongidan ko‘ra ko‘proq muhtoj. Vatanparvarlik g‘oyasi shu kungacha yetakchi mafkura bo‘lishga va jamiyatni jipslashtirishga bir qadar muvaffaq bo‘lib kelayotgan bir sharoitda Ukraina inqirozi vaziyatni butunlay o‘zgartirib yubordi. O‘n minglab harbiylar o‘limiga, jamiyat kundalik hayotining tobora yomonlashuviga sabab bo‘layotgan urushning davom etishi hali butkul shakllanib ulgurmagan mafkurani butkul barbob qilishi shubhasiz.

Kashmir muammosini atroflicha o‘rganish natijasida ayon bo‘ladiki, mojaro ishtirokchilari bo‘lgan mamlakatlarning mafkura va g‘oyaviy qadriyatlarini ushbu masalaga jiddiy yondashadi. Kashmir hududini boy berish yoki undan voz kechish ushbu davlatlar uchun qabul qilib bo‘lmas shartlar hisoblanib, ularning milliy manfaatlariga tahdid sifatida qaraladi. Bunday vaziyatda harbiy to‘qnashuvlarga yo‘l qo‘ymay, o‘zaro murosa va muzokaralar yo‘li bilan muammoni hal qilish eng maqbul yo‘l sanaladi. Zero, mojaro ishtirokchilari bo‘lgan uch mamlakat ham ayni paytda yadro quroliga egalik qilishadi. Mayjud real vaziyatni hisobga olgan holda konstruktiv muloqot orqali masalaga

Yuqorida tilga olingan mafkuralardan tashqari boshqa ko‘plab mafkuralar ham mavjud. Ulardan biri millatchilik mafkurasidir. Millatchilik aksariyat hollarda o‘z millatini boshqalardan ustun ekanligini asoslashga urinadi. Millatchilik o‘z millatiga mansublikni boshqa millatlar manfaatlarini inkor etgan holda o‘z milliy (etnik) manfaatlarining ustuvorligiga asoslangan siyosiy tamoyil yoki dastur asosiga quradi. Aynan shu bilan u milliy o‘zlikni anglash, millatni himoya qilish kabi ezgu niyatlarni maqsad qilgan milliyatchilik mafkurasidan ajralib turadi.

Millatchilikning muhim xususiyatlari bo‘lgan milliy o‘ziga xoslik, til, an‘analar, urf-odatlar, mentalitet, yagona konfessiyaviy mansublik va boshqalar kabi ijtimoiy-madaniy xususiyatlarning umumiyligini nazarda tutganligi sababli, ma’lum bir etnik guruh vakillarini o‘z bayrog‘i ostida nisbatan osonlik bilan birlashtirishi mumkin. Shu bilan birga, boshqa etnik guruhlar bilan qarama-qarshilik milliy hamjamiyatning birlashishiga yordam beradi.

Millatchilik mafkurasining ikki xil turi mavjud: 1) milliy zulmga qarshi norozilik va etnik guruh huquqlarining yo‘qligiga qarshi norozilik sifatida(milliyatchilik); 2) millatchilik o‘z millatining boshqalardan ustunligini oqlash usuli sifatida. Birinchisi, milliy zulm, mustamlakachilik qaramligi, milliy kamsitishning turli shakllariga qarshi qaratilgan bo‘ladi. Bunday millatchilik progressiv xususiyatga ega. Ikkinchisi tabiat, maqsadlari va ularga erishish usullari bo‘yicha keskin harakterga ega tom ma’nodagi millatchilikdir. Bunday millatchilik mafkurasi yakunda keskin oqibatlarni yaratishi bilan xavflidir.

Dunyoning ko‘plab mamlakatlarida ayni damda siyosiy tuzumdan umidsizlik va o‘zgarishlarga intilish tufayli populistik harakatlar ko‘payib, populizm mafkurasi kuchayib bormoqda. Populizm har bir davr va makonda mavjud bo‘lgan siyosiy yondashuv bo‘lib, uni deyarli hamma siyosiy tizim sharoitlarida qo‘llash imkonи mavjud. Uning asosida faqat oddiy xalqqa yoqadigan, oddiy xalqning his-tuyg‘ularini junbishga keltirish orqali uni biron bir siyosiy mafkura, shaxs yoki tizim

atrofiga yig‘ish yotadi. Bundan maqsad esa ko‘pchilik hollarda xalqni manipulyatsiya qilish orqali hokimiyatga erishish, uni mustahkamlash, populizmdan foydalanayotgan tomonga qarshi bo‘lgan kuchlarni xalqning qo‘li orqali yo‘q qilishdan iborat bo‘ladi.

Mafkuraviy tuzilma sifatida populizm kuchli avtoritar ruhni o‘z ichiga olib, ham xarizmatik liderga yo‘naltirilganlikda, ham demokratik mexanizmlar va institatlardan voz kechish istagida namoyon bo‘ladi. “Biz xalq irodasini bildiramiz” formulasida aks etgan populistlarning vakillik da’volari har qanday rasmiylashtirilgan tartib-qoidalarni chetlab o‘tgan holda siyosiy dasturni bevosita amalga oshirishni talab qiladi. Populistlarning mantig‘iga ko‘ra, bahs-munozaraga hojat yo‘q, chunki nima qilish va qanday qilish kerakligi allaqachon aniq bo‘lib, institutlar va texnokratik qatlam rejalarini amalga oshirishga to‘sqinlik qiladi¹.

O‘tmishdagi misollar shuni yaqqol ko‘rsatib turibdiki, inqirozli vaziyatlarda keng xalq ommasi osonlik bilan populistlarning yolg‘on va’dalari ta’siriga tushib, ularning mafkuraviy ta’limotlariga ko‘rko‘rona ergashishgan. Bunday noaniqliklar oxir-oqibatda butun dunyo uchun og‘ir oqibatlar yaratadi.

Jahon mafkuraviy maydonida yuqorida tilga olingan jarayonlar bilan birga atrof-muhitni asrash, iqlim o‘zgarishi, yashillar harakati bilan bog‘liq ekologizm g‘oyalari ham tobora yangi ahamiyat kasb etmoqda. Oxirgi yillarda dunyoda iqlim o‘zgarishi va atrof-muhit degradatsiyasi bilan bog‘liq tashvishlar yanada barqaror va ekologik toza siyosat tarafdoi bo‘lgan odamlar harakatining kuchayishiga sabab bo‘lmoqda.

Ekologizm - bu atrof-muhitni muhofaza qilish va saqlashni nazarda tutuvchi mafkura bo‘lib, sanoatlashtirish, urbanizatsiya va resurslarni qazib olish kabi inson faoliyat turlari atrof-muhitga katta zarar yetkazganligi va bu muammolarni hal qilish uchun shoshilinch choralar ko‘rish kerak degan ishonchga asoslanadi. Ekologizm siyosiy,

tasavvur va tushunchalar yosh avlodga bolaligidanoq singdiriladi. Kino sanoati orqali fuqarolarda yot mafkuralarga qarshi immunitet shakllantirish ishlari muvaffaqiyat bilan olib boriladi. Nodavlat, notijorat tashkilotlari orqali Amerikacha qadriyalarni jahonga yoyishga katta e’tibor qaratiladi. Ularga bu yo‘nalishda katta mablag‘lar ajratiladi. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, Amerika nodavlat tashkilotlari ilgari suradigan maqsadlar, g‘oyalar barcha davlatlarga ham birdek mos kelavermaydi. Jumladan, AQSh homiyligidagi notijorat tashkilolari targ‘ib va himoya qiluvchi ba’zi qarashlar bizning milliy mentalitetimiz va milliy-ma’naviy qadriyatlarimizga mutlaqo mos kelmaydi. Shularni inobatga olib, yot tushunchalarga milliy qadriyatlarimiz, ma’naviy-axloqiy tushunchalar orqali qarshi turgan holda AQSh bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik qilishni davom ettirish maqsadga muvofiqdir.

Amerika mafkurasi asoslarini tashkil etuvchi “Amerika orzusi”, amerikacha hayot, erkinlik kabi qadriyatlar o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolmagan. Bularning paydo bo‘lishiga birinchi galda ummonorti mamlakatida yaratilgan ulkan iqtisodiy imkoniyatlar sababchidir. Shunday ekan, mafkuralarning samarali faoliyat yuritishi va ularni ilgari surishda jamiyatda keng iqtisodiy va moliyaviy imkoniyatlarning yaratilgani katta yordam beradi.

Chin yurtining mafkura sohasidagi tajribasini o‘rganish va bundan kerakli xulosalarni chiqarish bugungi kunda zamон talabiga aylandi. Sababi, 1.5 milliarddan ortiq nufusga ega bu davlat turli qiyinchiliklarga qaramay milliy birdamlikni saqlagan holda rivojlanish yo‘lida jadal odimlamoqda. Buning sabablaridan biri bevosita mafkura sohasiga borib taqaladi. Sovuq urush barham topgach butunlay yo‘qlikka yuz tutdi deb ishonilgan marksistik-sotsialistik mafkuraning kutilmaganda Xitoyda natija berishi dunyo mamlakatlarini hayron qoldirgani aniq. Bunga xitoyliklarning umumiyl maqsad yo‘lida birlashishga intilishi, mehnatkashligi kabi turli omillar qatorida mamlakat hayotini total nazorat qilgan va dastlabki davrda ulkan yo‘qotishlarga sabab bo‘lgan marksistik-sotsialistik mafkuraning o‘z vaqtida iqtisodiy taraqqiyotga xizmat qiluvchi g‘oya sifatida qayta ko‘rib chiqilgani sabab bo‘ldi.

¹ Запад в точке бифуркации: современный популизм как вызов либеральной демократии, URL: <https://russiancouncil.ru/analytics-and-comments/analytics/zapad-v-tochke-bifurkatsii-sovremennyy-populizm-kak-vyzov-liberalnoy-demokrati/>



XULOSA

Bugungi dunyoning mafkuraviy qiyofasi murakkab va serqirra bo‘lib, ko‘plab turli g‘oya va mafkuralar ta’sir uchun o‘zaro kurashmoqda. Mafkuralar orasida demokratik liberalizm ta’sir ko‘lamni bilan boshqalaridan yaqqol ajralib tursa, uning asosiy raqobatchisi bo‘lgan kommunizm g‘oyasi hali ham ba’zi mamlakatlarda hukmronligini saqlab qolib, yashashda davom etmoqda. Kommunizmning Xitoy rivojlanishiga qo‘sheyotgan hissasi dunyoda bu g‘oyaga bo‘lgan qiziqishni yanada oshirmoqda. Liberalizm va’da qiluvchi erkinliklar esa hamon millionlab insonlarda baxtli hayotga umid uyg‘otishda davom etmoqda. Jahan mafkuraviy maydonida shuningdek, diniy mafkuralar, millatchilik, populizm, konservativizm, ekologizm va boshqa ko‘plab mafkuralar ham tobora kuchayib bormoqda. Biroq, liberalizm mafkurasi, demokratiya g‘oyasi hali ham dunyo xalqlari ongida universal, jozibador mafkura sifatidagi yetakchilik mavqeini saqlab qolmoqda. Uning o‘rnini bosa oladigan muqobil mafkura hozirgi kunda mavjud emas.

Mafkuralar, g‘oyalar targ‘iboti, ularni aholi ongiga singdirish davlat faoliyatidagi ustuvor vazifalardan biri sanalib, bu borada zamonaviy va sinalgan usullardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Aholi ongida mafkuraviy qarashlarni shakllantirish texnologiyalari kompleks tarzda qo‘llanilib, har bir texnologiya ma’lum bir vazifani bajarishga xizmat qiladi, bunda hal qilinishi lozim bo‘lgan vazifaga qarab, tegishli texnologiya tanlanadi.

Amerika mafkurasi haqida gap ketganda aksariyat insonlarda ushbu ummonorti mamlakatida hech qanday mafkura mavjud emas, ular bu borada umuman bosh qotirishmaydi degan yanglish tushuncha shakllanib qolganiga guvoh bo‘lamiz. Biroq aslida vaziyat mutlaqo boshqacha. Amerikaliklar jamiyatni birlashtiruvchi mafkura va g‘oyaviy qarashlar masalasiga jiddiy e’tibor berishadi. Bu borada tizimli ishlar olib boriladi. Amerika davlatining qudrati, uning yengilmasligi haqidagi

iqtisodiy va ijtimoiy siyosatning axloqiy jihatlari haqida fikr yuritishda odamlardan boshqa tirik mavjudotlar va umuman tabiiy muhit ham teng ravishda e’tiborga loyiqligini ta’kidlaydi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish g‘oyasi jamiyatga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi va qonunlar, siyosat va madaniy me’yorlarning o‘zgarishiga olib keldi. Biroq, ekologizm hamon jamiyatda bahs-munozara mavzusi bo‘lib qolmoqda. Ba’zi odamlar atrof-muhit himoyasi tamoyillariga qarshi, boshqalari esa ekologik muhofaza va barqarorlikka nisbatan turli yondashuvlarni himoya qilmoqdalar. Ba’zi insonlar ekologik xavf-hatarlarni jiddiy qabul qilmayotgan, atrof-muhitni asrashga loqayd munosabatda bo‘layotgan bir paytda yashillar harakati vakillari rivojlangan mamlakatlarda partiyalar tuzib, namoyishlar o‘tkazmoqda, hukumat tarkibiga kirib, davlat siyosatiga sezilarli ta’sir o‘tkazmoqda. Shunday ekan, ekologizm mafkurasini e’tibordan chetda qoldirish, uni yaqindan o‘rganmaslik noto‘g‘ri bo‘ladi.

Ma’lum bir mafkurani keng xalq ommasi ongiga singdirish, uni keng targ‘ib qilish, o‘zgacha g‘oyalardan himoya qilish davlat faoliyatidagi muhim masalalardan sanaladi. Bugun bu yo‘lda turli mamlakatlar turlicha targ‘ibot usullari, texnologiyalarini ishga solishmoqda. Jumladan, AQShda Amerikaning buyukligi va o‘zgachaligi haqidagi g‘oyaviy qarashlar bolalarga yoshligidanoq singdira boshlanishi kelajakda ularda vatanparvarlik tuyg‘usini oshiradi, yot g‘oyalarga qarshi kuchli mafkuraviy immunitet va mamlakat kelajagiga bo‘lgan qat’iy ishonchni shakllantiradi. Yoshligidan Amerika g‘oyaviy qadriyatlari ruhida o‘sgan amerikaliklar ulg‘ayganda fuqarolik jamiyatining kuchli mafkuraviy qarashlarga ega a‘zolariga aylanishadi. Shuning uchun kuchli mafkuraviy asoslarga ega bo‘lishni istagan jamiyatlar yoshlari tarbiyasiga bolaligidanoq jiddiy e’tibor berishi, kuchli fuqarolik jamiyatini qurishga intilishi lozim.

Amerika o‘z mafkurasini aholi orasida keng targ‘ib qilishda kino sanoatidan ham muvaffaqiyatli foydalanadi. Amerika kinofilmlarida AQSh davlatchiligi, harbiylari, uning siyosati doim ijobiy ruhda tasvirlanib, amerikaliklarda davlatga, demokratiya g‘oyasiga, mamlakat

qudratiga bo‘lgan ishonchni shakllantirishga xizmat qiladi. Gollivud Amerika qadriyatlarini, davlat g‘oyalari va nufuzini dunyo bo‘ylab targ‘ib qilishda ham katta rol o‘ynaydi. Bir so‘z bilan aytganda, bugungi kun mafkura targ‘ibotida kino sanoati ajralmas o‘rniga ega. Bejizga Xitoy ham so‘nggi yillarda kino sanoatiga katta mablag‘ ajratib, undan o‘z mafkurasini ilgari surishda foydalanishga harakat qilmayapti. Oxirgi paytlarda Xitoy kinofilmlarini ham tomosha qilishni boshlagan kino ixlosmandlari “dunyonи o‘zga sayyoralik bosqinchilardan faqat amerikalik super qahramonlar emas, balki xitoylik qahramonlar ham qutqarishga qodir ekanligiga ishonch hosil qilishmoqda”.

Mafkuralar targ‘iboti, ularning hayotga muvaffaqiyatlari tarzda tatbiq etilishi borasida Xitoy tajribasi bugun ko‘pchilikning e’tiborini tortmoqda. Dastlab muvaffaqiyatsizlikka uchragan sotsializm g‘oyasi Xitoyda istisno tariqasida natija bergeniga xitoyliklarning umumiy maqsad yo‘lida birlashishga intilishi, mehnatkashligi kabi bir qator omillar sabab bo‘ldi. Va eng muhim, marksistik-sotsialistik mafkura o‘z vaqtida iqtisodiy taraqqiyotga xizmat qiluvchi g‘oya sifatida qayta ko‘rib chiqilgani bu borada hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ldi. Shu sababdan, mafkurani zamon talablariga moslab o‘zgartirib borish uning muvvaqiyati yo‘lidagi muhim qadam deb bemalol aytishimiz mumkin.

Shu o‘rinda Butunrossiya jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi(ВЦИОМ) direktori Valeriy Fedorovning antik davr va mafkura bilan bog‘liq muhim ahamiyatga ega fikrini keltirish o‘rinli. “Antik davrning mashhur aporiyasini esga olamiz: kema portdan chiqadi va uzoq safarga yo‘l oladi. Safar davomida u machtalarini yo‘qotadi, dovuldan zarar ko‘rgan yelkanlari almashtiriladi. Nihoyat kema manzilga yetib kelgach, uni qurishda ishlatilgan biron bo‘lak ham material qolmaganligi, barchasi almashtirilganligi ayon bo‘ladi. Savol tug‘iladi: bu o‘sha kemami yoki boshqa? Ma’lum ma’noda bu aynan o‘sha kema. Safarning har bir lahzasida kemaning dastlabki ko‘rinishdagi shaklidan nimadir saqlangan. Boshqa tomonidan esa, kema endi mutlaqo tanib bo‘lmas darajada o‘zgargan. Mafkura bilan ham xuddi shunday. U ham vaqt o‘tishi bilan tanib bo‘lmaydigan

istalgan paytda portlashi mumkin. Sababi, mahalliy aholi bilan hudud avtonom maqomini bekor qilish masalasida muloqot qilinmaganligi, musulmon aholini etnik hindlar tomonidan siqib chiqarishga urinish aholi orasida norozilik kayfiyatining kuchayib borishiga turki bo‘lmoqda. Pokistonda davom etayotgan iqtisodiy inqiroz esa uning nazoratidagi Kashmir hududi aholisi kundalik hayotiga tobora ko‘proq salbiy ta’sir o‘tkazmoqda. Bu o‘z navbatida hudud aholisi orasida norozilikni kuchaytirib, ayirmachilikning avj olishiga va hududdagi umumiy vaziyatning yanada taranglashuviga olib kelishi mumkin. Ayni paytda Xitoy separatizmga qarshi o‘z nazoratidagi hudud xavfsizligiga katta e’tibor berish va uni iqtisodiy rivojlantirish orqali samarali kurashmoqda. Shunday ekan har bir davlat muammoli hududlarini iqtisodiy jihatdan rivojlantirib borish orqali keljakda keskin norozilik va to‘qnashuvlarning kelib chiqishining oldini olishga muvaffaq bo‘ladi.

harakati, aholi orasidagi separatizmga moyillik kayfiyatiga qarshi kurashda oldindan muhim choralarini ko‘rish talab etiladi. Quyidagi kabi choralar muammoga qarshi kurashishda samarali natija berishi mumkin:

- Avvalo milliy birlik va milliy g‘urur tuyg‘usini shakllanishiga e’tibor berish lozim. Hukumat milliy bayramlarni nishonlash, fuqarolarning o‘z tarixi va madaniyatini yaxshiroq bilishlariga sharoit yaratgan holda milliy birlikning qanchalik muhimligini fuqarolarga singdirib borishi kerak;

- Hukumat separatist guruhlarning talablarini eshitgan holda, ularning noroziliklarini yumshatish choralarini ko‘rishi lozim;

- Ayirmachi mintaqalarda iqtisodiy imkoniyatlarni oshirish muhim hisoblanadi. Infrastruktura va biznes muhitini yaxshilash aholi farovonligiga ijobjiy ta’sir qiladi;

- Ayirmachilikka moyil guruqlar bilan muammoni hal qilish yuzasidan muloqot qilish;

- Separatizmga moyil hududlarda politsiya mavjudligini ko‘paytirish va razvedka ma’lumotlarini olish imkoniyatini oshirish orqali hudud xavfsizligini mustahkamlash;

- Va nihoyat, ta’limga investitsiya kiritish: separatist mintaqalarda sifatli ta’limni, oliy ta’lim qamrovi darajasini oshirish orqali yoshlarning jangari qurolli harakatlarga qo‘shilishining oldini olish mumkin.

Shu o‘rinda qayd etish kerakki, O‘zbekistonda ham ma’lum darajada ayirmachilikka moyillik mavjudligini hisobga olgan holda yuqorida tilga olingan choralarini qo‘llash va Kashmirda yo‘l qo‘yilgan xatolarni takrorlamaslik mavjud muammoga qarshi kurashda qo‘kelishi mumkin.

Pokistonda mavjud og‘ir iqtisodiy inqiroz, Hindiston Konstitutsiyasida Kashmir avtonomligi to‘g‘risidagi muddaning bekor qilinishi mintaqada ayirmachilik kayfiyatining yuqori darajada saqlanib qolishiga sabab bo‘lmoqda. Garchi Hindiston o‘z nazoratidagi Kashmir hududining alohida maqomini butunlay bekor qilishga erishgan bo‘lsada, bu yerdagi vaziyat “porox bochkasi” kabi xavfli bo‘lib,

darajada o‘zgarishi mumkin. Tasavvur qiladigan bo‘lsak, agarda XVIII asr va XXI asr liberalizmi vakillari uchrashib qolganlarida katta ehtimol bilan ular bir-birlarini hammaslak sifatida tan olmagan bo‘lardilar. Bu ochiq tizimning to‘lovidir. Ochiq tizim yashaydi. Yopiq tizim esa o‘lishga mahkum. Yetakchi mafkurani davlat mafkurasiga aylantirish – ochiqlikni rad qilishdir. Keyingi bosqich - jonsizlanish, chirish, halokatdir¹.

O‘z mafkurasini ilgari surishda liberal harakatlar ochiq axborot siyosatini olib borib, axborotni ko‘cha va ommaviy aksiyalar orqali efirga uzatmoqda, bosma mahsulotlar va maxsus adabiyotlar chiqarib tarqatmoqda. Bugungi kunda axborotni tarqatish usullari orasida Internet alohida o‘rin tutadi. Siyosiy harakatning asosiy hujjatlari(nizom, manifest, dastur), o‘tgan voqeja va tadbirlar to‘g‘risidagi hisobotlar, ijtimoiy-siyosiy yangiliklar, siyosiy harakat rejalarini taqdim etiladigan veb-sayti muhim axborot platformasi hisoblanadi. Siyosiy harakatning global tarmoqda mavjudligi jamoatchilikni qiziqtirgan savollarga tezkor javob berish va shu orqali uning tarafдорлари sonini oshirish imkonini beradi.

Ijtimoiy tarmoqlar, bloglar va mini-bloglarning (Twitter) faol rivojlanishi siyosiy harakatlarga virusli marketing texnologiyalaridan foydalanish imkonini beradi. Ushbu texnologiya ommaviy axborot vositalari va internet orqali kreativ ommaviy tadbirlar to‘g‘risidagi hisobotni spektakl va voqealar ko‘rinishida virusli tarzda, ya’ni hisobot fotosuratlar va videolar bilan birga veb-sayt va bloglarda e’lon qilinishi va boshqa yuzlab veb-saytlarga ko‘chirib bosilishini nazarda tutadi².

Dunyo mamlakatlarining aksariyatida mafkura Konstitutsiyada alohida va aniq qilib belgilanmagan. Ularning barchasi davlat tomonidan amaliy mexanizmlar orqali singdiriladi. Siyosiy harakatlar tomonidan mafkuralarni ommaviy ongga singdirish jarayonida

¹ Валерий Федоров: Любую идеологию опасно объявлять государственной, Российская газета – Федеральный выпуск №. 6749, <https://rg.ru/2015/08/13/fedorov.html>

² Соколова Елена Павловна. Технологии внедрения идеологии в массовое сознание // Управленческое консультирование. 2011. №2. – 106 с. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/tehnologii-vnedreniya-ideologii-v-massovoe-soznanie>

manipulyatsiya texnologiyalari, ya'ni odamlarning tafakkuri va xulq-atvorini ularning manfaatlariga zid ravishda o'zgartirish maqsadida mafkuraviy va ijtimoiy-psixologik ta'sir ko'rsatish usullari tizimi ustunlik qiladi. Manipulyatsiya jarayoni ommaviy nutqlar, ko'cha tadbirdi (piket, miting, namoyish, yurish), bosma materiallar (gazeta, varaqlar, buklet, ma'lumot varaqasi, risola, stiker, afisha), shuningdek, internetdagi ma'lumotlar (veb-sayt, ijtimoiy tarmoqlar, bloglar va boshqalar) yordamida amalga oshiriladi¹.

Mafkura targ'ibotida shuningdek, psixologik bosim texnologiyasi ham keng qo'llaniladi. Bu texnologiyadan ko'zlangan asosiy maqsad ma'lum bir mafkuraviy g'oyalari, qarashlar, tasavvur va tushunchalarni shakllantirish hisoblanadi. Ayni paytda u insonlarda salbiy yoki ijobjiy his-tuyg'ularni, keskin reaksiyalarni uyg'otishga ham xizmat qiladi. bunday manipulyativ texnologiyadan anarxist va millatchi harakatlar faol foydalanishadi.

Mafkulalar inqirozi zamonaviy siyosatning muhim xususiyatlaridan biriga aylanib ulgurdi. Mafkuraviy siyosatning parchalanishiga qarshi turish bugun zamon talabiga aylandi, chunki bo'linish siyosiy jamoalarni alohida madaniy va ijtimoiy anklavlarga bo'lib, ularni bir-biridan uzoqlashtirish va ular o'rtasidagi qaramaqarshilik xavfini oshiradi. Ijtimoiy va mafkuraviy tarqoqlikka tomon yuz burayotgan jarayonlar qarshisida mafkuraviy tiklanish zarur. Bu mafkuraviy siyosatning hozirgi g'oyaviy makondagi bo'linish tendensiyalarini tan olish va ularni bartaraf etishda yangi shakllari paydo bo'lishiga olib keladi².

Xulosa qilib aytganda, bugun dunyo kuchli axborotlashgan makonda, turli g'oya va mafkulalar to'qnashuvi, kurashi sharoitida yashamoqda. Amerikalik taniqli siyosatshunos Samuel Xantington bashorat qilgan "sivilizatsiyalar to'qnashuvi"ni biz bugun ma'lum ma'noda mafkulalar orasidagi to'qnashuvda ham ko'rmoqdamiz. Demokratik liberalizm mafkurasi jahon mamlakatlarida tobora

sanaladi. Pokiston nazoratidagi Kashmir unga Xitoy bilan to'g'ridan-to'g'ri chegaraga ega bo'lishga va asosiy raqibi Hindistonni Markaziy Osiyo bilan bevosita bog'lanishiga yo'l qo'ymaslikka yordam beradi. Shuningdek, mintaqada ikki davlat hududidan oqib o'tuvchi asosiy daryolar to'ynadigan ulkan suv resurslari mujassam. Bu resurslarning katta qismi Hindistonga tegishli Kashmir hududida joylashgan bo'lib, Pokiston hududida nisbatan kamroq. Shu boisdan Pokiston uchun Kashmir hududiga to'la egalik qilish suv zaxiralaridan ko'proq foydalanishga imkonli berishi tufayli dolzarb ahamiyatga ega.

Umuman olganda, Kashmir nizosining asosini mafkulalar to'qnashuvi natijasi deyishga asoslar yetarlicha. Hududiy nizolashayotgan tomonlar Kashmir mojarosidagi muvaffaqiyatsizlikni o'z davlatchiligi, g'oyaviy asoslari uchun mag'lubiyat deb qabul qiladilar. Shu boisdan ushbu mojaroda tomonlarning hudud masalasida o'zaro yon berishlarini kutish deyarli imkonsizdir. Pokistonda diniy qarashlarga qurilgan islomiy mafkura, Hindistonda hind millatchiligi bilan qorishib ketgan dunyoviy demokratik davlat mafkurasi va Xitoyning iqtisodiy rivojlanishga katta urg'u beruvchi "xitoycha kommunizm" mafkululari bir-biridan keskin farqlanib, Kashmir mojarosida tomonlarning kelishuvga erishishini qiyinlashtiradi.

Kashmir muammosini hal qilishda separatizm va terrorizm kabi xavflarga qarshi faol kurash talab etiladi. Mojaroshtirotchilar bo'lgan davlatlar muammoni birgalikda, tinch yo'l bilan hal qilish choralarini ko'rishlari eng maqbul yo'l bo'ladi. Kashmirda shakllangan murakkab vaziyat Hindiston va Pokiston o'zaro adovatga barham bergen holda, yagona yechimni topishini taqozo qilmoqda. Pokiston Hindiston hududida qurollangan to'dalarni qo'llashni bas qilishi, Hindiston esa o'z nazoratidagi Kashmir muslimonlarini kamsitish siyosatiga barham berishi mojaroning yanada kuchayishining oldini olishda, uni keyinchalik hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kashmir vodiysi nafaqat Hindiston va Pokiston o'rtasidagi siyosiy mojaros, balki mahalliy ayirmachilik harakati ham kuchli bo'lgan hududdir. Kashmirda va umuman, har qanday davlatda ayirmachilik

¹ O'sha manba, - 109 b.

² John J Schwarzmantel. 2008. Ideology and Politics. London, Sage Publications Ltd, - 16 p.

o‘rtasidagi kurash ekanligini ham sezish mumkin. Mojaroning faol ishtirokchilari bo‘lgan Hindiston va Pokiston, birmuncha vazmin pozitsiyaga ega Xitoyning masalaga o‘z yondashuvlari mavjud bo‘lib, bu yondoshuvlar asosan ularning g‘oyaviy qarashlariga, mafkurasiga tayanadi.

Hindiston mafkurasining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan turli millatlar ahillikda kun kechiruvchi dunyoviy davlat g‘oyasining muvaffaqiyatida Kashmir masalasi katta ahamiyatga ega¹. Kashmirda yashovchi aksariyat musulmon aholining hinduiylik diniga e’tiqod qiluvchi hindlar bilan bir davlatda tinch hayot kechirishi hind davlatining g‘oyaviy asoslardan biridir. To‘lig‘icha Islom dini asosida tashkil topgan Pokiston va dunyoviylikni targ‘ib qiluvchi, biroq hinduizmni keng qo‘llab-quvvatlovchi Hindiston o‘rtasidagi Kashmir mojarosi ayni paytda qarama-qarshi g‘oyalar to‘qnashuvi ham bo‘lib, bu muammoni yanada chigallashtiradi.

Kashmirning bir qismi bo‘lgan Aksay Chin hududining Xitoy tarkibida bo‘lishi uning mafkuraviy qarashlarida muhim bo‘lgan milliy birlik, iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy barqarorlik, uyg‘un jamiyat kabi g‘oyalarning hayotga tadbiq etilishida muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, bu hudud Xitoy hududiy birligini ta’minlashda muhim hisoblanadi. “Yagona Xitoy” mafkurasi doirasida Xitoy nazoratida bo‘lgan har qanday hudud bo‘linmasligi targ‘ib qilinadi va Aksay Chin ham hududiy nizolarga qaramay, Xitoyning qonuniy yeri hisoblanib, qat’iy himoya qilinadi.

Pokiston mafkurasi Islom dini atrofiga qurilgan bo‘lib, musulmon o‘ziga xosligini saqlash, diniy asosda milliy birlikni ta’minlash, musulmonlarni himoya qilish g‘oyalariga katta urg‘u beradi. Tabiiyki, aksariyat musulmonlar yashaydigan Kashmir hududini musulmon bo‘lmaning hindlar hukmronligidan qaytarib olish g‘oyasi hukumat va keng xalq ommasi tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi. Pokiston uchun Kashmirning bir qismiga egalik qilish favqulodda muhim vazifa

ommalashib, g‘oyaviy ekspansiyasini kuchaytirib borayotgan bir davrda unga asosiy raqobatchi bo‘lgan sotsializm-kommunizm mafkurasi taslim bo‘lmoqchi emas. Soviet davlati parchalanib ketgach ma’nosи va ahamiyatini tamomila yo‘qotdi deb ishonilgan kommunizm mafkurasi hali ham bir necha davlatlarda yashab kelmoqda. Xitoy taraqqiyotida sotsialistik mafkuraning tutgan o‘rni dunyoda unga bo‘lgan qiziqishni yana tikladi desak adashmagan bo‘lamiz. Dunyoning mafkuraviy maydonida liberalizm va sotsializmdan tashqari shuningdek, diniy mafkuralar, millatchilik, populizm, konservativizm, ekologizm va boshqa ko‘plab mafkuralarning tutgan o‘rni tobora ortib bormoqda.

¹ National Ideologies and the Kashmir Conflict,
<https://www.worldpoliticsreview.com/national-ideologies-and-the-kashmir-conflict/>



AMERIKA QO'SHMA SHTATLARI MAFKURASIZMI ?

Odamlar orasida “mafcura” tushunchasi haqida ziddiyatli qarashlar mavjud. Sobiq tuzum davrida millionlab insonlarning ongiga zo'r lab tiqishtirilgan, yolg'on va aldonlardan iborat kommunistik g'oyalar ommanning bu borada fikri keskin o'zgarishiga sabab bo'lgani sir emas.

Bugun ko'pchilik: “Hech qanday mafkurasiz ham rivojlangan jamiyat qurish mumkin. Ana, Amerikani ko'ring, u yerda hamma o'z bilganicha yashaydi, soliqlarni to'lasa bas, davlatning ular bilan ishi yo'q. Chunki u yerda – haqiqiy demokratiya!”, degan mazmundagi da'volarni qalashtirib tashlaydi.

Chindan ham, Amerika Qo'shma Shtatlarida davlat tomonidan hech qanday rasmiy mafcura joriy qilinmagan. Mamlakat Konstitutsiyasida ham bu borada alohida qoidalarni izlab ovora bo'lmaning, baribir topolmaysiz.

Shu bois yuqorida gaplar asosli tuyuladi, daf'atan ularga e'tiroz bildirish mushkul. Biroq ummonorti mamlakatining hayotiga chuqurroq nazar solsangiz, “mutlaq erkinlik ishqibozlari”ning hafasalasini pir qiladigan bir haqiqat oydinlashadi: amerikaliklar tasavvurga ham sig'maydigan darajada kuchli mafkuralashgan jamiyatda yashaydi! Bu mamlakat fuqarolarining ko'nglidagi orzu-umidlari, dunyo haqidagi tasavvurlari, o'zgalarga munosabati, erishadigan yutuqlari, umuman, butun nomai a'moli qudratli mafcura ta'siri bilan chambarchas bog'liq. Ta'bir joiz bo'lsa, barcha amerikaliklar bir umr jozibali g'oyalar akvariumida hayot kechiradi.

AQShda davlat tomonidan rag'batlantiriladigan “Amerikaning o'zgacha xususiyatlarga egaligi, dunyo mamlakatlari orasida maxsus, umumbashariy vazifalari bilan ajralib turishi” hamda “Amerika orzusi” kabi ijtimoiy tushunchalar mafcura vazifasini bajaradi. Shuningdek, ushbu jamiyatda o'z qadriyatlarning umuminsoniy xususiyatiga komil ishonch, demokratik o'zgarishlarni jahon bo'ylab yoyish istagi kuchli shakllangan.

Shu o'rinda Kashmir mojarosida Xitoyning ham manfaatlari mavjud ekanligini aytib o'tish lozim. Kashmirning sharqiy qismida joylashgan Aksay Chin nomli hudud Xitoy tomonidan nazorat qilinib, uning tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Biroq, ayni paytda bu hududni Hindiston ham o'z nazoratidagi tog'li Ladax viloyatining bir qismi deb biladi va unga doim da'vo qiladi. Buyuk Britaniya Hindiston yarimorolini tark etgandan so'ng paydo bo'lgan noaniqlik sharoitida Xitoy Hindistonga qarashli Ladax viloyatining shimoli-sharqiy hududini egallaydi. Metropoliya bu hududlarni Hindistonga bergenligi to'g'risidagi shartnomalar esa Chin yurti rasmiylari tomonidan tan olinmaydi. Xitoy uchun mazkur hudud G'arbiy Tibet va Uyg'ur avtonom viloyatini bog'lashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda qurilgan yo'lloyihasi ikki davlat o'rtasida 1962-yilda urush kelib chiqishiga ham sabab bo'ladi.

Shu tariqa, 1950-yillardan buyon Aksay Chin hududi Hindiston va Xitoy o'rtasida hududiy nizolar davom etib kelishiga sabab bo'lmoqda va ikki tomon o'rtasida o'tgan vaqt davomida ushbu hudud sababli bir necha bor harbiy to'qnashuvlar yuz berdi. Tog'li Tibet avtonom hududining g'arbiy chekka hududida joylashgan Aksay Chin o'zaro chegara hududida joylashgani sababli ham ikki mamlakat uchun strategik ahamiyatga ega hudud hisoblanadi. Hindiston va Xitoy hudud masalasidagi turli kelishmovchiliklarga qaramay hozirda mojaroni avj oldirmaslikni va uni tinch hal etish vositalaridan foydalanishni afzal ko'radilar. Bu borada ayniqsa, Xitoy masalaning o'ta murakkab ekanligiga to'g'ri baho bergan holda vazmin siyosat olib borishga harakat qiladi¹. Umuman olganda, kuchlari deyarli teng bo'lgan va yadroviy qurolga egalik qiluvchi davlatlar o'rtasida har qanday masalaga muloqot yo'lli bilan yechim topish eng maqbul qarordir.

Kashmir mojarosini sinchiklab o'rganar ekanmiz, bu nafaqat davlatlar o'rtasidagi hayotiy manfaatlar to'qnashuvi, balki mafkuralar

¹ China Appears to Understand the Risks in Kashmir More Than India or Pakistan, <https://www.worldpoliticsreview.com/china-appears-to-understand-the-risks-in-kashmir-more-than-india-or-pakistan>

va Hindiston qurolli kuchlari bilan keng ko'lamli qurolli to'qnashuvlar yuz berishi mumkin.

Hindiston siyosatida hozirgi davrda hind an'analari, diniy qarashlariga asoslangan hind milliy o'zligi mafkurasi (hinduizm ham deb nomlanadi) shakllangan. Bu mafkura hozirda hukmron partiya – Bxaratiya Janata Partiy (BJP)ning asosiy g'oyaviy yo'nalishini o'zida aks ettiradi. Hinduizm g'oyasi turli an'anaviy qarashlar aralashmasidan tashkil topgan. Ta'kidlash lozimki, hind an'analari haqida gapirganda, partiya mafkurachilari hind diniy tasavvuri va afsonalariga ko'proq urg'u beradi. Natijada Hindistonning an'anaviy hayotida muhim o'ringa ega bo'lgan Islom, buddizm va xristianlik kabi e'tiqodlar e'tibordan chetda qoladi. Tabiiyki, bunday yondashuv alaloqibatda dunyoviy davlat maqomiga da'vo qiluvchi hukumat siyosatini va mafkurasini shubha ostiga qo'yadi.

Hindistonga tegishli Kashmir hududida 370-moddada ko'zda tutilgan avtonomlik maqomi bekor qilingach norozilik harakati kuchayib, hind kuchishlatar tuzilmalari bilan to'qnashuvlar yana alanga oldi. Mahalliy qarshilik harakati a'zolari Hindistonning turli hududlaridan ko'chirib keltirilayotgan aholi vakillariga bosim o'tkaza boshladi. Ba'zi hollarda Kashmir tashqarisidan ko'chib kelganlarni o'ldirish holatlari ham kuzatila boshladi. Bunday qarshilik harakatlariga javoban hind politsiyasi va xavfsizlik kuchlari o'z navbatida shafqatsiz jazo choralarini ko'ra boshladi. Natijada, ayni paytda hududdagi vaziyat murakkabligicha qolmoqda va qurollangan jangarilar va hind kuchishlatar tuzilmalari vakillari o'rtasidagi to'qnashuvlar faol davom etmoqda.

Hindiston hudud muxtoriyatini bekor qilish orqali iqtisodiy o'sish, integratsiya yangi bosqichga ko'tarilishini va'da qilgan bo'lsada, amalda sezilarli o'zgarishlar ko'zga tashlanmadni. Buning ustiga ba'zi hollarda hind kuchishlatar tizimi vakillari tomonidan aholi mulkini talon-taroj qilish hollari va tinch aholining o'limi bilan tugagan holatlar ham kuzatildi. Tabiiyki, bunday voqealar Jammu va Kashmir aholisi orasida Hindistonga ishonchsizlik kayfiyatini kuchaytiradi.

Bunday qarashlarning shakllanishi o'ziga xos tarixga ega. Ma'lumki, XVI-XVII asrlarda asosan Angliyadan va G'arbiy Yevropa hududlarida cherkovning muttasil ta'qibi va monarxiyalarning cheksiz adolatsizligidan zada bo'lgan minglab insonlar yangicha hayot qurish ilinjida Amerika qit'asiga ko'chib kela boshlaydi. Turli millatlarga mansub bo'lgan bu odamlarni ijtimoiyadolat, erkinlik, insoniy haq-huquqlar va shaxsiy mulk daxlsizligiga erishish kabi umumiy maqsadlar o'zaro birlashtirib turar edi. Mazkur jarayon ancha uzoq davom etib, bir nechta avlod bunday sharafli yo'lda og'ir sinov va mashaqqatlarni yengib o'tishga majbur bo'ldi.

Nima bo'lganda ham, murod hosil bo'ldi. Olaquroq amerikaliklar kashshof ajodolari orzu qilgan yagona oliv qadriyat – insonning shaxs sifatida erkinligi ta'minlangan jamiyat barpo etdilar. Shu tariqa u yerda Amerikaning jahon sivilizatsiyalari orasida afzallikkarga egaligi, bu mamlakat dunyodaadolatni ta'minlash uchun o'zga yurtlarda ham demokratiyani kengroq qaror toptirishga haqli ekanligi haqidagi hukmron mafkuraviy tushuncha shakllandi. Bunday g'oyaviy qarashlar bugun ushbu davlat tashqi siyosatining ham asosini belgilab beradi. Yaqin o'tmishda AQSh tomonidan Vietnam, Iroq singari "nademokratik davlatlar" hududida olib borilgan harbiy harakatlar, 2001-yili Afg'onistonda boshlangan "terrorizmga qarshi global urush" va u yerda demokratik hokimiyat barpo etishga bo'lgan urinish buning dalilidir.

AQShda "Amerika orzusi" tushunchasi ham muqaddas hisoblanadi. Mamlakatda turli ijtimoiy guruhlar ehtiyojini qondirish va kishilarning farovon hayotini ta'minlash borasida ulkan imkoniyatlar mavjudligi "Amerika orzusi"ga bo'lgan ishonch va qiziqishni yanada oshiradi.

Ochig'ini aytganda, Amerika mafkurasi va g'oyaviy tushunchalari sobiq sho'rolar davlatining kommunistik mafkurasidan yuz chandon kuchliroq tarzda fuqarolar hayotiga kirib borgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Zotan, kommunizm cho'pchaklari allaqachon o'tmish qa'riga g'arq bo'lgan bo'lsa-da, vaqtida uning ta'siri ostida yashagan xalqlar hech narsa yo'qotgani yo'q. Biroq amerikaliklar o'zlarining bosh g'oyasi hisoblangan liberalizmdan mosuvo bo'lsa, milliy o'ziga

xosligini ham boy beradi. Chunki ushbu g'oya Amerika xalqi shakllanishining dastlabki davrlaridan buyon jamiyatda odamlar bilan yonma-yon yashab kelmoqda.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, AQShda biron bir mafkura qonuniy asosga ega emas. Mamlakatdagi 50 ta shtatda turli millat vakillari yashab, turlicha qarashlarga ega partiyalar va ommaviy axborot vositalari faoliyat ko'rsatsa-da, ularning barchasi asosiy va muhim masalalar bo'yicha bir xil fikrlaydi. Jamiyatda har qanday masala muhokama qilinishi mumkin, biroq mamlakatning yaxlitligiga putur yetkazish yoki turli inqiloblarni amalga oshirish haqida gap-so'z bo'lishi ham mumkin emas.

Shuningdek, Amerika jamiyatni tashqi axborot xurujlariga ham barqaror qarshilik ko'rsata oladi. Bolalarga esini taniganidan amerikaliklar dunyodagi eng sara millat hisoblanishi, AQSh qudratli armiyaga ega global kuch sifatida har qanday urushda g'alaba qozonganini muttasil uqtirib borishadi. Maktablarda muntazam ravishda davlat bayrog'iga qasamyod qilish marosimlari o'tkaziladi. Bunday tadbirdorda go'daklarga dunyoda hurlikning yagona timsoli bo'lgan o'z vatanini chin dildan sevish lozimligi, Amerikaning bo'linmasligi va Xudo tomonidan yer yuzidagi barcha xalqlarga yo'l ko'rsatuvchi sifatida belgilangani haqida ta'lim beriladi. Shu tariqa jamiyatda vatanparvarlik, Amerikaning buyukligi haqidagi mafkuraviy tushunchalar mustahkamlanib, fuqarolarda tashqi axborot va g'oyaviy xujumlarga nisbatan kuchli immunitet hosil bo'ladi.

Mamlakatda jamiyatning g'oyaviy asoslari va hukmron mafkuraviy qarashlarni himoya qilishga katta e'tibor beriladi. AQShda so'z erkinligi qattiq himoya qilinsa-da, muayyan holatlarda unga nisbatan cheklovlar ham qo'yiladi. Agar tarqatilayotgan axborot Amerika qadriyatlariga, milliy xavfsizlikka tahdid va demokratiya tamoyillariga zid deb topilsa, darhol ularga chek qo'yiladi.

Internet axborot makonida ham milliy manfaatlarni himoya qilish bo'yicha faol ish olib boriladi. Shu maqsadda shubhali foydalanuvchilarining shaxsiy ma'lumotlari o'rganilib, davlat

2019-yil 5-avgust kuni Hindiston nazorati ostidagi Jammu va Kashmir shtatida Narendra Modi hukumati Hindiston Konstitutsiyasining 370-moddasini va unda nazarda tutilgan mintaqaning yarim avtonom statusini bekor qilishga qaror qildi. Jammu va Kashmir shtati 2 qismga: Hindiston ittifoqi a'zolari bo'lgan Jammu va Kashmir va Ladax hududlariga bo'lindi. N.Modi hukumatiga ko'ra, bundan maqsad mintaqani iqtisodiy jihatdan yanada rivojlantirish edi.

Hindiston Bosh vaziri ushbu o'zgarishdan oldin bir necha bor 370-modda Kashmirda separatistik kayfiyat va terrorizmni qo'zg'atayotganini ta'kidagan edi. Uning fikricha, ushbu moddani bekor qilish orqali hukumat mintaqada barqarorlik va xavfsizlikni tiklash imkoniga ega bo'lar edi¹.

Kashmirliklarning fikriga ko'ra, mintaqada maqomini o'zgartirishdan maqsad etnik hindlarni bu yerga ko'chirib keltirish orqali mintaqadagi demografik vaziyatni hindlar foydasiga muvozanatlashtirishdan iborat².

Tabiiyki, bu o'zgarish mahalliy aholi orasida keskin noroziliklarga sabab bo'ldi. Hindiston hukumati bunday keskin vaziyatda o'n minglab qo'shimcha qurolli kuchlar va politsiya kuchlarini mintaqaga joylashtirdi. Norozilik harakatlarining oldini olish uchun yana ham keskin choralar ko'rildi: 5-avgustdan keyin barcha mahalliy maktablar, bozorlar butunlay yopib qo'yildi. Komendantlik soati e'lon qilinib, internet cheklandi. Bu cheklovlar Covid-19 pandemiyasi sababli yanada uzoqroq vaqt davom etdi.

Hozirda mintaqada nisbatan barqaror vaziyat hukm surayotgan bo'lsada, bu mutlaq tinchlikka erishilganini anglatmaydi. Kashmir tashqarisidan etnik hindlarni mintaqaga ko'chirib keltirish ommaviy ravishda boshlanadigan bo'lsa, ayirmachi kayfiyatdagagi mahalliy qurollangan guruhlar va ekstremistik tuzilmalarning yanada faollashuvi

¹ After India Revoked Its Autonomy, Kashmir Sees Repression and Militancy Rise, URL: <https://www.worldpoliticsreview.com/after-modi-revoked-article-370-kashmir-sees-repression-and-militancy-rise/>

² O'sha manba

musulmonlar yashaydigan shtatning bo‘lishi jihatidan katta ahamiyatga ega. Hindiston uchun Kashmirni yo‘qotish hind rahbariyati qabul qilishni mutlaqo istamaydigan diniy asosdagи millatchilikning kuchayishiga sabab bo‘lishi mumkin. Pokiston uchun esa Kashmirni boy berish Hindiston yarimorolining 1947-yilgi bo‘linishi mafkurasi asosidan voz kechishni anglatadi. Demokratik qadriyatlar mavjud emasligi sharoitida diniy qarashga asoslangan mafkura Pokistonning etnik xususiyatlar va tilga asoslangan millatchilikka qarshi asosiy himoya vositasidir¹.

Hindiston va Pokiston o‘rtasida shu paytga qadar 3 marta urush va boshqa bir qancha keng ko‘lamli harbiy to‘qnashuvlar yuz bergen bo‘lsa, ularning aksariyatiga Kashmir mojarosi sabab bo‘lgan. Kashmir tez-tez sodir bo‘ladigan qo‘poruvchilik harakatlari, qurolli hujumlar sababli hozirda doimiy ravishda qon to‘kiladigan zo‘ravonlik markazi bo‘lib qolmoqda va Pokiston buni hind boshqaruviqa qarshi xalq qarshiligi deb ta’riflasa, Hindiston Pokiston tomonidan dastaklanuvchi separatizm harakati deb hisoblaydi.

Shuningdek, Kashmir hududida ikki davlatga ham qo‘shilmasdan alohida mustaqil davlat bo‘lish g‘oyasini ilgari suradigan kuchlar ham mavjud. Hindiston va Pokiston uchun bunday istiqbol xavfli oqibatlar yaratishi mumkinligi bilan ahamiyatga ega. Sababi ikkala davlatda ham ayirmachilik kayfiyatidagi hududlar yetarlicha topiladi. Kashmirning mustaqillikka erishishiga yo‘l qo‘yish “domino effekti”ga sabab bo‘lishi va ikki davlatda ham mavjud separatistik kayfiyatdagi mintaqalar va shtatlarda ayirmachilik harakatining yangi to‘lqin boshlanishiga olib kelishi mumkin.

Pokistonning Hindiston nazorati ostidagi Kashmir hududida ko‘p hollarda qurolli qarshilik harakatini qo‘llab-quvvatlashi muammoni yanada chuqurlashtiradi. Bunday vaziyatda yadro quroliga ega ikki davlat o‘rtasida mojaro kelib chiqishining erta oldini olish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

¹ Pakistan’s Endgame in Kashmir, Husain Haqqani, URL:
<https://carnegieendowment.org/2003/07/01/pakistan-s-endgame-in-kashmir-pub-1427>

manfaatlariga mos kelmaydigan ma’lumotlarni tarmoqdan o‘chirish choralari ko‘riladi. Ba’zan hukumat mamlakat xavfsizligini ta’minalash yo‘lida internet resurslariga cheklovlar ham qo‘llaydi.

Shu o‘rinda AQShning sobiq prezidenti Donald Tramp bilan bog‘liq qiziq voqeani tilga olish o‘rinlidir. 2021-yil yanvar oyida Tramp tarafdarlari uning prezidentlik sayovlari adolatsiz o‘tgani haqidagi bayonotlari tasirida mamlakat Kongressi binosiga hujum uyshtiradi. Shundan so‘ng mutasaddilar tomonidan prezidentning barcha ijtimoiy tarmoqdagi sahifalari yopib qo‘yiladi. Amaldagi davlat rahbariga nisbatan bunday keskin chora ko‘rilishi birinchi galda Kongress binosi joylashgan Kapitoliy tepaligining mamlakat siyosiy hayotidagi ahamiyati bilan bog‘liq edi. Chunki ushbu maskan AQShning siyosiy barqarorligi, hokimiyat kuch-qudratining ramzlaridan biri hisoblanadi. Shu bois unga uyshtirilgan xuruj Amerika qadriyatlariga, jamiyatning g‘oyaviy asoslariga qarshi qaratilgan tahdid sifatida baholandi.

AQSh g‘oyaviy qadriyatlarini himoya qilish va uni jahonga targ‘ib qilishda kino san’atining ta’sirchan kuchidan unumli foydalilanadi. Dunyo kino sanoatida yetakchi hisoblangan Gollivud bu borada beminnat ko‘makchi vazifasini o‘taydi. Kino ustalarining davlat manfaatlariga xizmat qiluvchi filmlar yaratish ishtiyoqi muttasil rag‘batlantirib boriladi. Shu bilan birga, Gollivud muhitidagi siyosiy qarashlar va ijodiy kayfiyat hokimiyatning doimiy e’tibor markazida turadi. Xususan, o‘tgan asrning qirqinchi-elliginchi yillarida “Gollivud qora ro‘yxati” tuzilib, o‘zgacha siyosiy qarashlarga ega bo‘lgan madaniyat va san’at namoyandalari ana shu ro‘yxatga kiritiladi va ularning kino sohasida faoliyat yuritishi man qilinadi. Zotan, ushbu toifadagi ijodkorlarning aksariyati o‘scha davrlarda kommunistik g‘oyasiga moyil shaxslardan iborat edi. Bugungi kunda ham Amerika qadriyatları va manfaatlariga zid bo‘lgan filmlar Gollivudda muvaffaqiyat qozonmaydi.

1930-yilda AQSh Kinoijodkorlari assotsiatsiyasi tashabbusi bilan “Xeyes kodeksi” deb nomlangan hujjat qabul qilinadi. Shunga asosan, assotsiatsiyaga a’zo bo‘lgan prodyuserlar bir qator tamoyillarga rioya

qilish majburiyatini olishadi. “Tomoshabinning axloqiy qarashlariga putur yetkazadigan filmlar yaratishga yo‘l qo‘yilmasligi, tomoshabinlarda jinoyatchilik, vahshiylig va boshqa tuban illatlarga nisbatan moyillik uyg‘otadigan sahna ko‘rinishlarni tasvirga olish mumkin emasligi” haqidagi qatiy talablar shular jumlasidandir. Shu paytga qadar AQShda davlat manfaatlari va jamiyatda qaror toptirilgan axloq mezonlariga teskari bo‘lgan o‘nlab filmlarni namoyish qilish ta‘qilangan.

Darhaqiqat, Gollivud Amerika qadriyatlari, jamiyatdagi ustuvor g‘oyalar va mamlakatning nufuzini jahonda targ‘ib qilish borasida katta rol o‘ynaydi. Jumladan, AQSh Mudofaa vazirligi hozirgi kunda yuzdan ortiq kinoloyihalar, televizion shoular, video o‘yinlar yaratuvchilari bilan mamlakat armiyasining kuch-qudratini keng ommaga namoyish qilish bo‘yicha faol hamkorlik qiladi. Pentagon filmlarni suratga olish jarayonida kino ustalariga o‘zining harbiy bazalari, zamонавиу qurol-aslahalarini bajonidil taqdim etadi. Buning evaziga yaratiladigan kinoasarlarning mazmuniga o‘zgartirish kiritish huquqini qo‘lga kiritadi. Natijada Qo‘shma Shtatlar armiyasining obro‘siga soya soladigan lavhalar bartaraf qilinib, vatan himoyachilarining faoliyati hech bir kamchiliksiz, ideal mazmunda ommaga taqdim qilinadi.

Hozirgi paytda butun dunyoda Gollivudning ta’siri juda baland ekanini hech kim inkor qilolmaydi. Xususan, so‘nggi yillarda Gollivudning Xitoy kino bozoridagi mavqeい sezilarli darajada yuksaldi. Hatto, Amerika filmlari Chin yurtida kassaboplilik borasida mahalliy filmlarni ham sezilarli darajada ortda qoldirmoqda. Shu bois Xitoya Amerika filmlari namoyishiga bir qator tralablar qo‘yila boshladi. Ummonoti mamlakati kinojodkorlari ham o‘zlariga mo‘may daromad keltirayotgan Xitoy bozorini yo‘qotishni istamay, bunday shartlarni qabul qilishga majbur bo‘lishmoqda.

Shuningdek, Xitoy bozoriga kirishni istagan amerikalik ishbilarmonlar bu mamlakatda o‘rnatilgan qat‘iy talablar sababli, o‘zlarining ayrim prinsiplaridan voz kechishga majbur. Bu holat so‘nggi paytlarda AQSh hukumatini tashvishga solmoqda. Ularning fikricha,

o‘tadi. O‘zaro aniq belgilangan chegaraning o‘rnatilmagani sababli ikki davlat o‘rtasida yana bir necha bor urush va keng ko‘lamli harbiy to‘qnashuvlar sodir bo‘ladi. 1971-yilda boshlangan uchinchi Hindiston-Pokiston urushi Sharqi Pokistonning mustaqil Bangladesh davlatiga aylanishi va Kashmirda nizolashayotgan tomonlar o‘rtasida nazorat chizig‘i (amalda o‘zaro chegara) o‘rnatilishi bilan tugadi.

Kashmir mojarosi sababli ikki qo‘shni davlat o‘rtasida qurolli to‘qnashuvlar vaqtı-vaqtı bilan muntazam davom etib kelmoqda. Shu paytga qadar tog‘li Kashmirning Hindiston va Pokiston nazorat qiluvchi hududlari o‘rtasida o‘zaro tan olingan rasmiy chegara o‘rnatilmagan. Ikki davlat ham Kashmirları o‘zining qonuniy hududi deb hisoblab, o‘z nazoratida bo‘limgan hududlarni vaqtinchalik okkupatsiya qilingan deb hisoblaydi.

Pokiston Kashmir mojarosini xalqaro nizo deb hisoblab, bu masalani xalqaro forumlarda muhokamaga qo‘yishga, boshqa davlatlarning bu masalada vositachilik qilishiga harakat qiladi. Pokiston tomoni BMTning mayjud rezolyusiyalariga asoslangan holda Kashmirda plebissit (referendumning bir turi) o‘tkazishni talab qiladi. Ularning fikricha, aksariyat qismi musulmonlar bo‘lgan kashmirliklar Pokiston tarkibida bo‘lishni yoqlab ovoz berishlari tayin. Islomobod ayni paytda Kashmir muammosini hal qilmasdan turib, Hindiston bilan boshqa masalalar bo‘yicha muzokaralar o‘tkazish imkonsiz ekanligini ta’kidlaydi. Hindiston tomoni esa Kashmir mojarosini xalqaro nizo deb hisoblashga qarshi chiqib, plebissit o‘tkazish taklifini qat‘iyan rad etadi. Hind hukumatining asosiy talabi “transchegaraviy terror” – Hindiston nazoratida bo‘lgan Kashmir hududida qurollangan musulmon to‘dalarini bevosita Pokiston tomonidan qo‘llab-quvvatlanishini to‘xtatish va 1947-yilda hind maharojası Xari Singx imzolagan Hindistonga qo‘shilish to‘g‘risidagi qonuniy shartnomaga ko‘ra Pokistonning Kashmirdan chiqib ketishi hisoblanadi.

Hindiston uchun Kashmir “eskirgan va ortiqcha” BMT rezolyusiyalarga qaramay allaqachon hal qilingan masala bo‘lib, uning Hindiston tarkibiga kirishi dunyoviy sekulyar davlatda asosan



KASHMIR MOJAROSIDA MAFKURALAR KURASHI

Kashmir mojarosining dastlabki davrlaridan beri Hindiston va Pokiston Kashmir aholisining milliy o‘ziga xosligi masalasi yuzasidan raqobat qilib keladi. Ikki davlat elitasi ham mazkur hududni o‘z milliy davlatchiligi shakllanishida asosiy o‘ringa qo‘yishadi. Pokiston rasmiy mafkurasida mamlakat milliy davlat sifatida aholisining asosiy qismini musulmonlar tashkil qiluvchi Kashmir hududisiz to‘laqonli davlat maqomiga erisha olmasligi ta’kidlanadi. Musulmonlar ko‘p bo‘lgan ushbu hududning hind davlatiga qo‘shilishi Hindiston mafkurasida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Kashmir vodiysiga egalik qilish Hindistonning barcha din vakillari birgalikda tinch yashashi mumkin bo‘lgan bag‘rikeng dunyoviy davlat sifatida namoyon bo‘lishiga yordam beradi.

1947-yilda Hindiston Buyuk Britaniya mustamlakachiligidan ozod bo‘lgach, ikki davlatga: musulmonlar yashaydigan Pokiston va asosan hindlar istiqomat qiluvchi Hindistonga ajralib ketgan edi. Diniy asosda yuz bergen bu bo‘linish millionlab insonlarning qochqinga aylanishiga, minglab insonlarning qoni to‘kilishiga olib keldi. Hindiston va Pokiston davlatining vujudga kelishi bilan bir vaqtida ular o‘rtasida azaliy raqobat maydoni bo‘lgan Kashmir mojarosi ham paydo bo‘ldi. 1947 yilgacha tog‘li Kashmir hududini bu yerda asosan musulmon diniga e’tiqod qiluvchi aholi yashashiga qaramasdan hind maharojasi boshqarib kelar edi. Britaniya mustamlakachiligi barham topgach, Kashmirda hind rojasiga qarshi qo‘zg‘olonlar ko‘tarilib, bu isyonlarda musulmon birodarlariga yordam berish maqsadida ko‘plab qurollangan pokistonliklar Kashmirla bostirib kirishadi. Natijada mahalliy roja Hindiston ittifoqiga qo‘shilishga qaror qilib, undan yordam so‘raydi. Shunday qilib, Hindiston va Pokiston qo‘shinlari o‘rtasida 1947-1949-yillarda Kashmir mojarosi tufayli birinchi urush bo‘lib o‘tadi. Urush yakunlariga ko‘ra Kashmir hududining aksariyat qismi Hindiston nazoratiga, uncha katta bo‘lmagan bir qismi esa Pokiston nazorati ostiga

Xitoy kommunistik partiyasi Amerika kompaniyalarini – mehmonxona biznesi vakillari, aviakompaniyalardan tortib, kino prodyuserlarini ham Pekingda ma’qul keladigan yo‘lni tanlashga majbur qilayotgani bilan aslo murosa qilib bo‘lmaydi. Bunday sharoitda Xitoy senzurasining ta’siri va Amerika kompaniyalariga nisbatan bosimiga qarshi kurashish zarur.

Shu maqsadda bir guruuh senatorlar tomonidan Xitoyning Qo‘shma Shtatlarga nisbatan senzurasi kuchayishining oldini olishga qaratilgan qonun loyihasini ishlab chiqishdi. Ta’kidlash lozimki, ushbu loyiha Kongressda demokratlar va respublikachilarning boshini qovushtirgan kamdan-kam qonunchilik tashabbuslaridan biri hisobalanadi. Chunki muxolif partiyalar Xitoy kabi umumiy raqobatchiga qarshi turish haqida gap ketganda, hech ikkilanmasdan o‘zaro til topisha oladi. Garchi mazkur qonun loyihasi rasman qabul qilinmagan bo‘lsa-da, ayni paytda faol muhokama qilinmoqda.

Darvoqe, ayni paytda Kongressda xorijiy mamlakatlardagi o‘quvchilar uchun Xitoyni tanqid qiluvchi jurnalistik materiallar tayyorlashni qo‘llab-quvvatlash maqsadida ommaviy axborot vositalariga 500 million dollar mablag‘ ajratishni nazarda tutuvchi qonun loyihasi ham tez-tez tilga olinmoqda.

Amerika o‘ziga raqib hisoblangan davlatlarning axborot targ‘ibotidan jamiyatni himoya qilish uchun tezkor choralarini amalga oshiradi. Misol uchun, Rossianing Ukrainaga harbiy bosqinidan so‘ng AQShda rus telekanallarining namoyishi to‘xtatildi. Amerikaliklar nazorati ostidagi ijtimoiy tarmoqlar, YouTube kabi videoxosting saytlarida Rossiya davlat ommaviy axborot vositalarining sahifalari butunlay bloklandi.

AQSh o‘zining liberal, demokratik qadriyatlarini dunyo mamlakatlariga yoyish ishtiyoqidan hech qachon voz kechgan emas. 2003 - yilda Iroqqa qarshi harbiy harakatlar ham ushbu mamlakatda totalitar tuzumga barham berish va u yerda demokratik hokimiyat o‘rnatish da’vosi bilan boshlangan edi. Bu yo‘lda nafaqat quroq kuchidan, balki turli agentliklar, xalqaro va nodavlat tashkilotlarning imkoniyatidan ham unumli foydalanilib, ularga mo‘maygina moliyaviy

ko'mak ajratiladi. Demokratik tamoyillarni yer yuzida keng targ'ib etish masalasi Qo'shma Shtatlarning XXI asrdagi ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilanib, mamlakat siyosiy hayotida ushbu maqsad yo'lida ko'plab tuzilmalarni, jumladan turli davlat va nodavlat tashkilotlarni birlashtirgan keng tarmoq vujudga keldi.

Tashqi siyosatni amalga oshirishda ham demokratiya va inson huquqlari masalasiga ustuvor e'tibor qaratiladi. Dunyo mamlakatlarida bu boradagi vaziyat yuzasidan hisobotlar e'lon qilib boriladi. Xorijiy davlatlarning siyosiy tuzumi demokratiya talablariga qay darajada amal qilinayotgani hamda rivojlanayotgan yurtlarda demokratiyanı qo'llab-quvvatlash masalasiga katta urg'u beriladi. AQSh Davlat departamenti va USAID xalqaro taraqqiyot agentligi ana shunday vazifalarni bajaradi.

Rasmiy davlat idoralaridan tashqari, hukumat tomonidan mablag' bilan ta'minlanadigan bir qancha fondlar, institutlar, xalqaro nodavlat tashkilotlar ham amerikacha mafkuraviy qarashlar va qadriyatlarini dunyo bo'ylab yoyishda kuch-g'ayratini ayamaydi. Ana shunday tuzilmalar sirasiga kiruvchi AQSh milliy demokratiya fondi 2011-yilgi "arab bahori" voqealari paytida norozilik namoyishlarida ishtirot etgan yoshlarni faol qo'llab-quvvatlagan. Ushbu fond Markaziy va Sharqiy Yevropa, Osiyo, Yaqin Sharq, Afrika, Lotin Amerikasi va Yevroosiyo mamlakatlarida "demokratik taraqqiyot va inson huquqlari" sohasidagi tadqiqotlar uchun grantlar taqdim etadi. Mazkur tashkilotning rasmiy manbalarida uning Markaziy Osiyodagi faoliyati davomida mustaqil ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlash, erkin va adolatli saylovlari, hukumat institutlari ustidan fuqarolik jamiyatni nazorati va siyosiy plyuralizmni mustahkamlashga ustuvor yo'naliishlar sifatida qayd etilgan.

Shuningdek, demokratik qadriyatlarni dunyoga yoyishda xayriya jamg'armalarining ham o'rni katta. Xususan, butun dunyoda katta nufuzga ega bo'lgan Ford fondi asosan AQShga xayrixoh bo'lmanan davlatlarda inson huquqlarining buzilishi holatlarini yoritish bilan shug'ullanadigan tashkilotlarni moliyalashtiradi. Ford fondini AQSh

g'oyalar qanchalik kuchli bo'lmasin, o'n minglab harbiylarning o'limiga, jamiyat iqtisodiy hayotining keskin yomonlashuviga sabab bo'layotgan urush oqibatlari yakunda o'z so'zini aytmay qo'ymaydi. Bunday vaziyatda hech qanday mafkura vaziyatni o'nglashda yordam bera olmaydi.

Rossiyalik olim Valeriy Fedorov ayni paytda mafkuralarning ahvoli haqida so'z yuritar ekan, ularning aksariyati boshi berk ko'chada ekanligini va davlat mafkurasi masalasida ehtiyyotkorlik bilan ish tutish kerakligini ta'kidlaydi. "Bugungi kunda g'oyalar va mafkuralarning ko'pi inqiroz holatida. Buning sababi – dunyo juda tez o'zgarmoqda. Uzoq muddat davomida hukmron bo'lgan mafkuralar liberalizm mafkurasi kabi jiddiy o'zgarishlarni boshdan kechiribgina o'z dominant mavqeini saqlab qolishi mumkin. Aks holda ular turg'unlashib qolib, kommunizm kabi yo'qlikka yuz tutadi. Bundan tashqari, industrial dunyodan postindustrial dunyoga o'tish davrida paydo bo'lgan yangi mafkuralar ham bugun inqiroz holatida. Axborot jamiyatni mafkurasi ham inqirozda. Barcha mafkuralar inqiroz yoqasida. Shuning uchun ham ayni paytda har qanday mafkurani davlat mafkurasi sifatida e'lon qilish xavfli bo'lib, katta zarar keltiradi"¹.

¹ Валерий Федоров: Любую идеологию опасно объявляют государственной, Российская газета – Федеральный выпуск №. 6749, - 2 б. <https://rg.ru/2015/08/13/fedorov.html>

rahbariyati uni zamon talablariga moslab o‘zgartirishga qaror qildi. Iqtisodiy qarashlar jihatidan yangilangan mafkura mamlakat taraqqiyotiga xizmat qila boshladi. Keyinchalik boy tarixga ega milliy qadriyatlarning ham (dastlabki davrda bu haqida gap ham bo‘lishi mumkin emas edi) marksizmga asoslangan mafkurada aks eta boshlashi unga bo‘lgan ishonchni yanada mustahkamladi. Bundan xulosa shuki, davlat mafkurasi ham ba’zi hollarda muvaffaqiyatga erishishi mumkin. Ammo buning uchun u zamon ruhiga mos ravishda doimo yangilab, to‘ldirilib borilishi kerak. Afsuski, davlat tomonidan o‘rnatilgan rasmiy mafkuralar aksariyat hollarda rivojlanish o‘rniga insonlarni belgilangan qat‘iy qoidalarga rioya qilishga majburlab keladi. Rivojlanishdan to‘xtagan mafkura, ayniqsa, davlat mafkurasi halokatga mahkum. Buni Sobiq ittifoqda rasman davlat mafkurasi bo‘lgan kommunizm oxir-oqibatda turg‘unlik, ishonchsizlik va nafrat manziliga aylanib qolganligi ham tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, so‘nggi paytlarda Rossiya siyosiy sahnasida yuz berayotgan voqealar fonida mafkuraviy makonda ham jiddiy o‘zgarishlar kuzatilmogda. Ukrainadagi urush vaziyatida mamlakat fuqarolari orasida g‘arba qarshi adovat kayfiyati kundankunga kuchaymoqda. Bundan tashqari, Rossiyada avj olgan antivesterianizm, rus armiyasining yengimasligi, Rossiyaning boshqalardan ajralib turuvchi global qudratga ega mamlakat ekanligi haqidagi g‘oyaviy qarashlar uning Ukrainada harbiy harakatlar boshlashiga turtki bo‘lgan sabablardandir. Biroq, real vaziyat shuni ko‘rsatmoqdaki, buyuklik, yengimaslik, boshqalardan ajralib turish haqidagi balandparvoz da’volar haqiqatga mos kelmaydi.

Dunyoning ko‘plab davlatlari tomonidan sanksiyalar joriy qilinishi, Ukrainada davom etayotgan urush sharoitida Rossiya bugun mafkuraga har qachongidan ham muhtoj. Unga fuqarolarning vatanparvarlik ruhini namoyish etishi, iqtisodiy qiyinchiliklarni yengib o‘tishda birdamlik ko‘rsatishi suv va havodek zarur. Ammo har qanday mafkura, g‘oya ham o‘z amal qilishida ma’lum chegaralarga ega. Rossiyada vatanparvarlik, antivesterianizm, buyuk davlat kabi

Markaziy razvedka boshqarmasi bilan aloqadorlikda gumon qiladiganlar ham yo‘q emas.

AQSh mafkurasini xalqaro miqyosda targ‘ib qilishda inson huquqlari bo‘yicha notijorat tashkilotlarning ham alohida o‘rni bor. Freedom House, Human Rights Watch, Open Society kabi tuzilmalar bu borada salmoqli ta’sir kuchiga ega. Ular rasman AQSh hukumatiga aloqador bo‘lmasa-da, aslida turli yo‘llar orqali hukumat tomonidan moliyalashtiriladi. Shunga yarasha, aksariyat hollarda ulardan AQSh tashqi siyosatining muhim norasmiy qurorollari sifatida foydalaniadi. Jumladan, Freedom House hisobotlari dunyo mamlakatlarida siyosiy va fuqaro huquqlariga oid vaziyat chuqur tahlil qilinishi bilan ajralib turadi.

Tashkilotning yillik hisobotlariga xalqaro maydonda ham yetarlichcha e’tibor bilan qaraladi. Uning oxirgi hisobotida so‘nggi yillarda O‘zbekiston demokratik islohotlar borasida sezilarli ijobjiy yutuqlarga erishayotganini qayd etish bilan birga, demokratik xususiyatlari juda kam davlat sifatida baholangan. Freedom House inson huquqlarini himoya qilish masalasida biryoqlama va bahsli xulosalar ham chiqaradi. Misol uchun, uning 2021-yil bahorida e’lon qilingan bayonotida Miraziz Bozorov ism-sharifli kimsaning o‘zbek jamiyatiga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydigan besoqolbozlikni targ‘ib qiluvchi chiqishlarini so‘z erkinligi sifatida talqin qilgan edi. Tabiiyki, boy ma’naviy va axloqiy qadriyatlarga ega xalqimiz bunday tuban illatlarni hech qachon inson huquqlarining namunasi sifatida qabul qilmaydi.

Human Rights Watch (“Inson huquqlarini kuzatib borish”) esa asosan dunyoning ko‘plab mamlakatlarida inson huquqlarining buzilishi holatlarini monitoring qilish, bu borada surishtiruvlar o‘tkazish va hujjatlashtirishga ixtisoslashgan. Shu maqsadda tashkilot o‘lim jazosi hamda bir jinsli nikoh tarafdostrarining kamsitilishini qoralaydi. Diniy e’tiqod va matbuot erkinligini qo‘llab-quvvatlaydi. Ana shu maqsadlariga erishish maqsadida hukumatlar va alohida siyosatchilarga bosim o‘tkazishga harakat qiladi. Ushbu tashkilot ham muntazam ravishda O‘zbekistonga nisbatan turli ayblovlar e’lon qilishi bilan ajralib turadi.

Amerikalik mashhur biznes magnati Jorj Soros tomonidan asos solingen “Ochiq jamiyat” fondi dunyo bo‘ylab jamiyatda adolatni qaror toptirish, ta’lim, sog‘liqni saqlash va mustaqil ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish maqsadida fuqarolik jamiyati guruhlariga moliyaviy yordam ko‘rsatish bilan shug‘ullanadi. Soros fondi bir vaqtlar Markaziy Osiyo mintaqasida ham faoliyat ko‘rsatgan. Biroq demokratik qadriyatlarni qo‘llab-quvvatlash niqobi ostida mintaqaga mamlakatlarning ichki ishlariga aralashish, amaldagi siyosiy tuzumlarning kamchiliklariga urg‘u berish hamda turli muxolif guruhlarni qo‘llab-quvvatlashga urinishi tufayli jiddiy tanqidlarga uchragan. Mazkur fond o‘zining shubhali harakatlari tufayli 2004-yili O‘zbekistondagi missiyasini yakunlashga majbur bo‘ladi.

Bir so‘z bilan aytganda, AQSh hukumati davlat va nodavlat tashkilotlarning xorijdagi faoliyatini dastaklashga katta e’tibor qaratadi. Shu orqali ulardan demokratik mafkura va qadriyatlarni dunyo bo‘ylab yoyishda foydalanishga intiladi. Hozir Amerika nodavlat tashkilotlarining ta’sir doirasi tobora kengayib bormoqda. Shunday bir vaziyatda avvalgi tajribalarni inobatga olib, ularning mamlakatimiz hududidagi faoliyatiga ehtiyojkorlik bilan munosabatda bo‘lish talab etiladi. Chunki bunday tashkilotlarning demokratik qadriyat haqidagi ayrim tushunchalari bizning jamiyatimizga mos kelmasligi ayon haqiqat.

Shu bilan birga, bunday tuzilmalarning faoliyatini butunlay cheklab qo‘yish ham o‘zini oqlamaydi. Sababi, oxirgi yillarda AQSh bilan mamlakatimiz o‘rtasidagi aloqalar tobora rivojlanib, hamkorliklarimiz yangi darajaga ko‘tarilmoqda. Bu jarayonda Qo‘shma Shtatlarning davlat idoralari bilan bir qatorda, nodavlat tashkilotlar ham faol ishtirok etib, ikki tomonlama manfaatli loyihalarni amalga oshirishga munosib hissa qo‘shayotganini unutmaslik lozim.

Mana shunday jarayonda xalqaro nodavlat tashkilotlarning mamlakatimiz hududidagi faoliyatini diqqat bilan kuzatib borish, har qanday yot g‘oyalarga qarshi milliy qadriyatlarimiz, ma’naviy-axloqiy tushunchalar orqali kurashish maqsadga muvofiq.

dunyo siyosiy xaritasidan o‘chirib tashlashni niyat qilgan” kabi keskin fikrlar bildirilgan¹.

Shu o‘rinda Butun Rossiya jamoyatchilik fikrini o‘rganish markazi (ВЦИОМ) direktori Valeriy Fedorovning mafkura haqidagi fikrini eslab o‘tish lozim: “Agar mafkura davlat darajasiga ko‘tariladigan bo‘lsa, bu uning muvaffaqiyatsizligiga (zavoliga) bo‘lgan birinchi qadamdir. Mafkurani yo‘q qilishning eng yaxshi usuli - bu unga davlat mafkurasi darajasini berishdir²”.

Fedorovning fikricha, g‘arb davlatlarida liberalizm hukmron mafkura sifatida uzoq vaqtlardan beri mavjud bo‘lib kelishiga davlat darajasida uning mustahkamlab qo‘yilmagani sabab bo‘ldi. Davlat ma’lum bir mafkurani qanchalik ezgu maqsadni ko‘zlamasin barcha uchun majburiy tarzda singdirishga urinsa, natija teskari oqibatlarni yaratishni boshlaydi. Sababi, mafkura rasman davlat darajasiga ko‘tarilgandan so‘ng ma’lum qoliplar bilan o‘zgarmas ko‘rinishda targ‘ib qilina boshlaydi. Uning asosi bo‘lgan g‘oyalalar o‘zgarishdan, rivojlanishdan to‘xtaydi. Oxir-oqibat mafkura turg‘unlikka tushib, unga bo‘lgan ishonch butkul yo‘qoladi³.

Albatta, yuqoridaagi fikrlarga qo‘silmaslikning iloji yo‘q. Shuningdek, bu yerda davlat mafkurasi bo‘yicha Xitoy tajribasini eslab o‘tish ham foydadan holi bo‘lmaydi. Xitoyda 1949-yilda xalq respublikasi tashkil topgach, marksizm g‘oyalari davlat mafkurasi sifatida qat’iy targ‘ib qilina boshlandi. Xitoy komunistlari belgilab bergen rasmiy mafkuraga ko‘r-ko‘rona ergashish, odamlarni uning qonun-qoidalariga binoan yashashga majburlash oxir-oqibatda Xitoyda millionlab insonlar uchun fojea bilan yakunlandi. XX asrning 70-yillari oxirlarida davlat mafkurasi rivojlanishdan to‘xtab turg‘unlik va biqqlikning assosiy sababiga aylanib qolganini tushunib yetgan Xitoy

¹ «Россию хотят превратить в Московию». Николай Патрушев — о Западе и Украине, “Аргументы и Факты” № 1-2. Холодный просчет. Как морозы проверяют коммунальное хозяйство на прочность, 11/01/2023

² Валерий Федоров: Любую идеологию опасно объявлять государственной, Российская газета – Федеральный выпуск №. 6749, <https://rg.ru/2015/08/13/fedorov.html>

³ O’sha manba.

yanada ko‘proq dabdaba va shovqin-suron bilan o‘tkazila boshlandi. Shu tariqa, ikkinchi jahon urushidagi g‘alaba atrofida yaratilgan vatanparvarlik g‘oyasi bugungi Rossiya mafkuraviy makonining tashrif qog‘oziga aylandi. Urush mavzusi, g‘alaba g‘oyasi shu darajada muqaddaslashtirildiki, bugun Rossiyada ayrim shaxslar hattoki millionlab insonlar umriga zomin bo‘lgan dahshatli urush natijalarini qayta takrorlay olamiz (*rus. “mojem povtorit”*) degan aqlga sig‘mas fiklarni ham bildirishmoqda.

Ukraina inqirozi sababli Rossianing g‘arb davlatlari bilan munosabatlari keskin yomonlashishi sharoitida Rossiya rahbariyati jamiyatda g‘arbgan qarshi turish, AQSh va Yevropa davlatlarini yuzaga kelgan inqirozda ayblasti kayfiyatini kuchaytira boshladi. “Antivesterianizm” g‘oyasi vatanparvarlik mafkurasining bir qismi sifatida tobora kuchayib bormoqda. Bu g‘oya AQSh va uning ittifoqchilarini an‘anaviy rus ma‘naviy-axloqiy, madaniy va tarixiy qadriyatlariga putur yetkazishda ayblaydi. G‘arb davlatlari transmilliy korporatsiyalar, notijorat tashkilotlar orqali Rossiya xalqlarining an‘anaviy dunyoqarashiga zid bo‘lgan qarashlarni targ‘ib qilayotganligi tanqid qilinadi. AQSh va Yevropa davlatlari Rossiyani kuchsizlantirishga urinishda, uni Ukraina inqiroziga majburlab tortganlikda ayblana boshladi. Rus harbiylari Ukraina yerlarida ukrainaliklar bilan emas, balki g‘arb davlatlari tajovuziga qarshi jang qilishmoqda degan antivesterianizm asosiga qurilgan tushuncha faol targ‘ib qilina boshladi.

Rossiya Federatsiyasi Xavfsizlik Kengashi kotibi Nikolay Patrushevning “Аргументы и факты” gazetasiga bergen intervyusida bildirilgan fikrlardan antivesterianizm g‘oyasi Rossianing yuqori siyosiy doiralarida qay darajada faol ahamiyat kasb etayotganligini ko‘rish mumkin. Jumladan, intervyuda: “Ukrainadagi voqealar – Moskva va Kiyev o‘rtasidagi to‘qnashuv emas, balki NATO va Rossiya o‘rtasidagi harbiy qarama-qarshilikdir. Kollektiv G‘arb bugun Rossiyani kuchsizlantirib, uni Moskva knyazligiga aylantirish va oxir-oqibatda uni

Maqolamiz muqaddimasida Amerikaning buyukligi va o‘zgachaligi haqidagi g‘oyaviy qarashlar bolalarga muttasil uqtirib borilishi haqida aytgan edik. Bunday samarali usul yordamida ularning vatanparvarlik tuyg‘usi parvarishlanadi, ongi va shuurida yot g‘oyalarga qarshi kuchli mafkuraviy immunitet va mamlakat kelajagiga qatiy ishonch tuyg‘usi shakllantiriladi. Natijada davlat mafkurasini qonunlashtirishga ehtiyoj qolmaydi.

Esini taniganidan Amerika g‘oyaviy qadriyatlari ruhida ulg‘aygan insonlar vaqtি kelib fuqarolik jamiyatining kuchli mafkuraviy qarashlarga ega a’zolariga aylanadi. Bunday jamiyat har qanday begona g‘oyalarga qarshi mustaqil ravishda kurasha oladi, ularni qabul qilmaydi. Shu ma’noda, Amerikaning kuchli mafkuraviy poydevor yaratish bobidagi yutuqlariga har qancha havas qilsa arziyi.

Bir so‘z bilan aytganda, Amerika Qo‘shma Shtatlarining o‘ziga xos va murakkab tuzilishga ega mafkuraviy qadriyatlарини chuqur o‘rganish hamda bu borada muayyan xulosalar chiqarishning zararidan foydasi ko‘proqdir.



XITOY: MAFKURA – SIYOSAT ASOSI

Xitoy – jahoning eng qadimgi sivilizatsiya o‘choqlaridan biri, to‘rt ming yildan ortiq tarixga ega yurt. Asrlar davomida o‘ziga xos madaniy va axloqiy qadriyatlar shakllangan ushbu mamlakatda hozirgi globallashuv davrida milliy manfaatlarga xizmat qiladigan mafkuraviy maydonni shakllantirish va shu asosda barqaror rivojlanishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Ma’lumki, sobiq Ittifoq tanazzulga yuz tutgach, “ixtiyoriy-majburiy” tarzda faoliyat ko‘rsatib kelgan sotsialistik davlatlar quramasi ham ko‘z ochib yumguncha parchalanib ketdi. Kreml tomonidan kommunistik tuzum barpo etishga mahkum qilingan ittifoqdosh respublikalar hulrikka erishgach, ushbu mafkuradan bajonidil voz kechib, demokratik jamiyat qurishga bel bog‘ladi. Albatta, allaqachon o‘tmish puchmoqlarida qolib ketgan sotsialistik lager vakillarining demokratik jamiyat buniyod etish yo‘lidagi izlanishlari silliq va ravon kechayotgani yo‘q. Ushbu jarayonlar muayyan yutuq va muammolar bilan hamon davom etmoqda.

Qizig‘i, yer yuzidagi sanoqli davlatlar, shular qatorida Xitoy ham kommunistik mafkuraga sodiq qolishga qaror qildi. Xitoy murakkab davrlarda ham o‘zi tanlagan siyosiy taraqqiyot yo‘lidan og‘ishmay rivojlanishda davom etdi. Ushbu yurt siyosatchilari sobiq Ittifoqning qulashiga birinchi galda uning hayotdan butunlay uzilib, dogmaga aylanib qolgan mafkurasi sabab bo‘ldi, degan xulosaga kelishdi. Shu bois Xitoya davlat mafkurasi zamonga moslashuvchan, dinamik xususiyatga ega bo‘lishiga jiddiy e’tibor qaratila boshladi. Shu maqsadda amaldagi mafkura hayot talablariga qayta moslashtirilib, bozor islohotlariga keng yo‘l berildi. Aksar qismi qashshoqlikda yashayotgan aholining turmushini o‘nglash va farovonligini oshirish iqtisodiy islohotlarning bosh maqsadi etib belgilandi.

Xitoy asrlar davomida o‘z davlatchiligining dunyoda ustun mavqega ega ekanligiga urg‘u berib kelgan. Chin yurti siyosiy

tarafdorlari Rossiya oddiy Yevropa davlati emas, balki Osiyo sivilizatsiyalari bilan tutashgan qudratli Yevroosiyo mamlakati degan fikrni ilgari surishadi. Rus-Yevroosiyo madaniyati na Yevropa va na Osiyo sivilizatsiyasiga tegishli bo‘lib, o‘zining ichki birligi va qolganlardan ajralib turishini takidlovchi mustaqil, o‘ziga xos makondir¹.

Tarixan Vizantiya Yevropa va Osiyo o‘rtasida joylashgan Sharqiy Rim imperiyasi sifatida mavjud bo‘lgan. G‘arbiy Rim imperiyasidan farqli ravishda yana ming yil mavjud bo‘lgan bu davlat o‘zining diniy, siyosiy, ijtimoiy xususiyatlari bilan G‘arbiy Yevropa sivilizatsiyasidan ajralib turgan. Yevroosiyo davlati xususiyatiga ega bo‘lgan Rossiya ham Vizantiyadan yevroosiyochilik tabiatini meros qilib olgan va endilikda ikkinchi Rim hisoblangan Konstantinopol o‘rniga Moskva uchinchi Rim sifatida mavjud. Bugungi kunga kelib Rossiya Vizantiya kabi g‘arb sivilizatsiyasi bilan kurashni davom ettirmoqda; Rossiya va G‘arb qarama-qarshiligi mafkuralar kurashi bo‘lishi bilan birga ayni paytda sivilizatsiyalar to‘qnashushi hamdir degan qarashlar ham rus jamiyatni tafakkurida keng tarqalgan².

So‘nggi yillarda Rossiyada shuningdek, ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan g‘alaba oliv vatanparvarlik namunasi sifatida faol targ‘ib qilinmoqda. “Ulug‘ vatan urushi” (ikkinchi jahon urushi Rossiyada shu nom bilan tilga olinadi)dagи g‘alaba Rossiya rahbariyati tomonidan tinimsiz tilga olinadigan asosiy mafkuraviy mavzuga aylangan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Rossiyada 2000-yillardan boshlab urushda g‘olib bo‘lgan mamlakat qiyofasi atrofida an‘anaviy vatanparvarlikni tiklash maqsadida ko‘plab ishlar amalga oshirildi. Fashizm ustidan qozonilgan g‘alaba jamiyat uchun muqaddas qadriyatga aylantirildi. Sovet davrida an‘ana tusini olgan 9-may harbiy parad tadbirlari zamonaviy Rossiya rahbariyati tomonidan

¹ Голенкова Зинаида Тихоновна, Еремеев Александр Евгеньевич, Идеология евразийства: между Востоком и Западом // Общество и право. 2006. №4 (14). URL:

<https://cyberleninka.ru/article/n/ideologiya-evraziystva-mezhdu-vostokom-i-zapadom>

² Зиновьев А. А. Планируемая история: Запад. Посткоммунистическая Россия. Гибел русского коммунизма. – М. : ACT, 2009. – 111 б.

“Rus dunyosi” g‘oyasi barcha Rossiya hududlari va xalqlari davlat asosini tashkil etuvchi rus xalqi, rus tarixi va madaniyati asosida mavjud bo‘lishi mumkinligi haqidagi qarashni o‘zida aks ettiradi. Mamlakatning barcha xalqlari va hududiy birliklari rus dunyosining ajralmas qismlari hisoblanadi. Qaysidir xalq yoki hududning rus dunyosidan ajralib chiqishi rus dunyosining bir butunligini yo‘qotishiga va keyinchalik halokatiga olib keladi. Shuningdek, “rus dunyosi” g‘oyasi rus qadriyatlarini saqlab kelayotgan rus diaporalarini ham o‘z ichiga oladi va ularni himoya qilishni targ‘ib qiladi. Rus tilida so‘zlashuvchi va rus madaniyati ta’siri ostida yashovchi Rossiyaga qo‘snni mamlakatlar fuqarolari ham “rus dunyo”sining bir bo‘lagi sifatida qaraladi. Bu esa o‘z navbatida Rossiyaga qo‘snni davatlardagi rus tili bilan bog‘liq vaziyatni o‘z talqiniga ko‘ra baholash imkoniyatini taqdim etadi. Jumladan, O‘zbekistonda davlat tilini mustahkamlashga bo‘lgan harakatlar rus tiliga bosim sifatida baholanishi mumkin.

Ta’kidlash lozimki, 2014-yilda Ukrainada Rossiya aralashuvi bilan yuzaga kelgan siyosiy inqirozgacha bo‘lgan davrda slavyan xalqlari orasida “rus dunyosi” konsepsiyasiga nisbatan birmuncha ijobiy munosabat shakllangan edi. Slavyan xalqlari birligi, umumiy tarix kabi g‘oyaviy qarashlar Sharqiy Yevropa mamlakatlari aholisi orasida nisbatan ijobiy qabul qilinar edi. Ammo 2014-yilgi Donbassdagi siyosiy inqiroz, va nihoyat 2022-yil fevral oyida Ukrainaga harbiy intervensiya uyushtirilishi Rossiyaning xalqaro maydondagi obro‘si bilan birga “rus dunyosi” g‘oyasiga ham jiddiy zarba berdi. Endilikda “rus dunyosi” kalimasini eshitganda insonlarda ishonchsizlik, qo‘rquv, istehzo kabi tuyg‘ular paydo bo‘ladigan bo‘ldi. Bu g‘oya Rossiyaning aggressiv tashqi siyosati tufayli xalqaro maydondagi qiymati va jozibadorligini butkul yo‘qtdi.

Yevroosiyochilik g‘oyasi Rossiyadagi asosiy g‘oyaviy qarashlardan biridir. Unga ko‘ra, Rossiya Yevropa va Osiyo hududida joylashgan ulkan davlat ekanligi sababli rus madaniyati nafaqat Yevropa balki Osiyo madaniyatlari bilan ham chambarchas bog‘liq. Bu g‘oya asosan Yevropani inkor qilish fikridan paydo bo‘lgan. Uning

dunyoqarashiga ko‘ra, imperator – osmonosti hukmdori bo‘lib, yer yuzidagi barcha mamlakatlar va insonlar uning ixtiyoriga bo‘ysunishi lozim edi. Ochig‘i, “o‘zgalardan ajralib turish”ga asoslangan siyosiy tafakkur ma’lum darajada Xitoyning xalqaro maydonda yolg‘izlanishi va eng muhimi, taraqqiyotda ortda qolishiga sabab bo‘ldi. XIX asrda mamlakatga yevropaliklar kirib kelgach, bunday dunyoqarashning aslida tagi puch ekanligi ayon bo‘lib qoldi. Tarix sahifalariga “Afyun urushlari” sifatida muhrlangan janglarda Buyuk Britaniyadan uchralgan qaqshatqich mag‘lubiyatlar Xitoyning allaqachon qoloqlikka yuz tutganini, o‘z qobig‘iga o‘ralib hayot kechirish halokatli oqibatlarga olib kelishi mumkinligini yaqqol ko‘rsatib berdi. Xitoy tarixidagi Yevropa mustamlakachilar bilan bog‘liq bunday “qora sahifalar” muhim tarixiy saboq sifatida millionlab insonlar ongida o‘chmas iz qoldirdi.

Shundan buyon Xitoy jamiyatni yuqoridagi kabi xatolarni takrorlamaslik maqsadida o‘zi tanlagan rivojlanish yo‘lini doimiy tahlil qilib boradi. Bu borada yo‘l qo‘yilgan xatolarni xolis tan olib, ularni bartaraf etish choralarini ko‘radi. O‘tgan asrning 90-yillarida dunyoda sotsialistik tuzumlar birin-ketin qulagach, ushbu mamlakat mutasaddilari mafkuraviy siyosatda jiddiy o‘zgarishlarni amalga oshirish vaqt kelganini, agar bu ish ortga surilsa yomon oqibatlarga olib kelishi mumkinligini anglab etdi. Shu bois Xitoyda sotsialistik tuzum saqlab qolingga holda, bozor iqtisodiyoti tamoyillari hayotga joriy qilindi. Natijada iqtisodiy taraqqiyot borasida misli ko‘rilmagan yutuqlar qo‘lga kiritilib, yuz millionlab insonlar qashshoqlik domidan xalos bo‘ldi.

Shunday qilib, ayni paytda Xitoy siyosiy tizimida mafkura hal qiluvchi vazifani bajaradi. Bu mamlakatda ustuvor taraqqiyot modelining o‘ziga xos jihatlari, milliy manfaatlar, davlat ahamiyatiga ega loyihalarning mazmuni mafkura bilan belgilanadi. Odatda muayyan bir jamiyatga tegishli bo‘lgan mafkuraning mazmun-mohiyati yagona milliy g‘oya vositasida o‘z ifodasini topadi. Ana shu g‘oya jamiyatda qabul qilingan rivojlanish strategiyasini amalga oshirishga xizmat qilishi lozim. Bugungi kunda Xitoy hukumatining ichki va tashqi

siyosati dunyoda juda ko‘p tanqid qilinishi ham bor gap. Mamlakat rahbariyati bunday sharoitda aholini yagona maqsad yo‘lida yanada mustahkamroq jipslashtirishga jiddiy e’tibor qaratmoqda.

Yaqin vaqtlargacha Xitoyda G‘arbgan xos bo‘lgan hayot tarziga qiziqish yuqori bo‘lib, shaxs erkinligi masalasiga ham alohida urg‘u berilar edi. Biroq Si Szinpin hokimiyat tepasiga kelgach, mafkuraviy maydonda ham tub o‘zgarishlar yuz berdi. “Yangi davrda xitoycha xususiyatlarga ega sotsializmni” qurish Si Szinpin tomonidan asosiy mafkuraviy yo‘nalish sifatida tanlandi. Bu mafkuraga qarshi chiquvchilarga nisbatan toqatsizlik va bosimlar kuchaydi. Kommunistik partiyada keng qamrovli antikorrupsion tadbirlar o‘tkazilib, yuz minglab partiya a’zolariga qarshi jinoiy ishlar ochildi. Bunday “tozalash” ishlari fuqarolarda davlat rahbariyati shaffof va adolatli ishlayotganligi haqidagi tushunchani shakllantirish uchun kerak edi Chin yurti iqtisodiy taraqqiyot bobida katta yutuqlarga erishayotgan bo‘lsa-da, rivojlangan davlatlar tomonidan jiddiy bosimlarga ham duch kelmoqda. Shuning uchun jamiyatda Xitoy madaniyati va an‘anaviy turmush tarzi G‘arb qadriyatlaridan ustun ekanligi haqidagi dunyoqarashni shakllantirishga kuchli ehtiyoj paydo bo‘ldi. Aholini begona qadriyatlardan ishonchli himoya qilish va milliy mafkura ostida birlashtirish ustuvor vazifaga aylandi.

Mamlakat hayotida hanuz kommunistik qarashlarga asoslangan marksizm g‘oyasi yetakchi o‘rinni egallaydi. Xitoy Xalq Respublikasi tashkil etilgan dastlabki davrlarda mazkur g‘oya xalqni chet ellik bosqinchilarga qarshi kurashga safarbar etish, urushdan keyingi vayrongarchiliklarni bartaraf etish va mamlakatni rivojlantirish borasida o‘ziga xos mayoq vazifasini o‘tagan edi. Shundan buyon oradan o‘tgan vaqt davomida ushbu hukmron mafkura turli davrlarni boshdan kechirdi. XXR asoschisi Mao Szedun davrida marksizm qonun-qoidalari jamiyat hayotini to‘la nazorat qildi. Xitoyliklar turmush tarzi to‘liq siyosiylashtirildi. Keyinchalik Den Syaopin Xitoyda sotsialistik bozor iqtisodiyotini qurish siyosatini yuritdi.

Aytish mumkinki, bugungi kunga kelib Rossiyada vatanparvarlik g‘oyasi hukmron mavqega ega mafkuraga aylangan. Bu g‘oya boshqalaridan berilayotgan e’tibor jihatidan keskin ajralib turadi. Faqatgina vatanparvarlik g‘oyasi jamiyatni birlashtira oluvchi to‘laqonli kuch ekanligi mafkura sohasi tadqiqotchilari tomonidan ko‘p bora ta‘kidlanmoqda¹.

Rossiya prezidenti V. Putin ham chiqishlaridan birida mafkura masalasida gapirar ekan, “Rossiya Federatsiyasida vatanparvarlikdan boshqa hech qanday birlashtiruvchi g‘oya bo‘lishi kerak emas. Aynan vatanparvarlik – Rossianing milliy g‘oyasi (mafkarasi)dir” degan edi².

Vatanparvarlik g‘oyasidan tashqari Rossiya mafkuraviy maydonida “rus dunyosi”, “Yevroosiyochilik”, “Moskva – uchinchi Rim”, “antivesterianizm (g‘arbgan qarshi turish)”, “ulug‘ vatan urushidagi g‘alaba” va boshqa shu kabi g‘oyalar ham muhim o‘rin tutadi. Bunday g‘oyaviy qarashlar bugungi Rossianing mafkuraviy manzarasini o‘zida aks ettiradi.

Atoqli rus faylasufi V. V. Kojinovning fikricha, “G‘arb mamlakatlari qonun ustuvorligiga asoslangan nomokratiya davlatlaridir (yunoncha “nomos” – qonun va “kratos” – hokimiyat). Rossiya esa g‘oyalar tomonidan boshqariladigan ideokratiya mamlakati. Rossiyada “Hukmron g‘oya” o‘z kuchini yo‘qotganda, tartibsizlik boshlanadi. 1917-yilda podsho Rossiyasining “samoderjavija, pravoslavlik, xalqchillik” nomli rasmiy mafkarasi o‘z kuchini yo‘qotganda ham shunday tartibsizlik yuz bergen edi. 1991-yilda kommunistik g‘oyaga barham berilgandan keyin ham shunday holat sodir bo‘ladi. Bugun mamlakat yangi g‘oyaga muhtoj, chunki Rossiya faqat ideokratiya sifatida mavjud bo‘lishi mumkin”³.

¹ Мартюшов Л.Н. Государственная идеология российской Федерации: какой ей быть? // Вестник Уральского института экономики, управления и права. 2018. №2 (43). - 17 б. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/gosudarstvennaya-ideologiya-rossiyskoy-federatsii-kakoy-ey-byt-1>

² Путин: патриотизм – “это и есть национальная идея”, URL: <https://tass.ru/politika/2636647>

³ Кожинов В. В. Коренные различия России и Запада. Идея против закона. – М. : Алгоритм, 2014. – 16 б.

Rossiyada podsho Nikolay II davrida “rasmiy xalqchillik nazariyasi” ishlab chiqilib, rasmiy mafkura darajasiga ko‘tariladi. Bu nazariya asoslarini “yakka hukmdorlik” (samoderjavie), “pravoslavlik”, “xalqchillik” kabi jihatlar tashkil etar edi. “Yakka hukmdorlik” – Rossiya davlatchiligi mavjudligi kafolati, uning buyukligi tayanchi; “pravoslavlik” – Rossiyada hukmron din sifatida hokimiyatning asosi; “xalqchillik” esa rus xalqi va hukmdori bir biriga yelkadosh ekanligini anglatar edi.

XX asr boshida Rossiyada podsho hukumati ag‘darilishi oqibatida kommunizm mafkurasi rus imperialistik mafkurasi bo‘lgan “pravoslavlik-samoderjavie-xalqchillik” uchligi o‘rmini egalladi. Marksizm-leninizm ta’limoti Sovet davlatining qonuniylashtirilgan yagona g‘oyaviy mafkurasiga aylantirildi. Marksizm insonlar ongiga majburan singdirilib, o‘quvchi va talabalar tomonidan o‘rganilishi shart qilib belgilandi. Mafkuraning bu tarzda insonlarga majburiy tarzda singdirilishi unga nisbatan qo‘rquv va nafrat paydo bo‘lishiga olib keldi. Mamlakat rahbariyati va mafkurachilar va’da qilgan farovonlik real hayotda amalga oshmadi. Oqibatda, fuqarolarda mafkuraga nisbatan ishonchsizlik, istehzo bilan qarash kayfiyati kuchaydi. Rossiyaliklar ongida kommunizm mafkurasi bilan bog‘liq salbiy xotiralar kuchli iz qoldirgani sababli 90-yillar jamiyat hayotini to‘liq mafkurasizlashtirish shiori ostida o‘tdi. Jamiyatda mafkuraga nisbatan yorqin kelajak va demokratik jamiyat qurish yo‘lidagi asosiy to‘sinq degan salbiy tushuncha shakllandi. Biroq vaqt o‘tishi bilan rus jamiyatni umumiyo‘g‘oya va maqsadning yo‘qligi, mafkuraviy bo‘shliq sababli milliy qadriyatlarini, o‘zligini yo‘qotish xavfi bilan yuzlashdi. Insonlarni umumiyo‘maqsad yo‘lida birlashtirishga qodir hukmron g‘oyaning yo‘qligi jamiyat va davlatni har bir individ o‘zining shaxsiy yoki jamoaviy manfaatlarini ko‘zlaydigan, davlat kelajagi uchun ijtimoiy javobgarlik hissi yo‘q bo‘lgan mo‘rt tuzilmaga aylantira boshladi. Bunday vaziyatda Rossiyada oxirgi yillarda mafkura qanday bo‘lishi, uni qanday g‘oya asosiga qurish kerak degan masala keng muhokama qilina boshladi.

Bugungi kunga qadar Xitoyda sotsialistik davlatga xos elementlar saqlangan holda, bozor iqtisodiyoti keng qo‘llab-quvvatlanmoqda. Shunga qaramay, marksizm g‘oyasi mamlakat hayotida katta ta’sir kuchiga ega. Buning bir qancha sabablari bor, albatta. Birinchidan, marksizm g‘oyasi avvalboshdanoq Xitoy kommunistik partiyasi uchun yo‘lchi yulduz vazifasini bajarib kelgan, hozirgi vaqtida ham uning siyosatida asosiy o‘rin tutadi. Ikkinchidan, marksizm Xitoy davlat boshqaruvi uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ma’lumki, Xitoyda prezident, bosh vazir saylovleri tizimi mavjud emas. Mamlakatda yagona bo‘lgan Xitoy kommunistik partiyasi 100 millionga yaqin a‘zoga ega. Ko‘ppartiyaviylikka asoslangan raqobat ham yo‘q. Shunday bo‘lsada, Xitoy davlat boshqaruvi tizimi barqaror faoliyat yuritmoqda. Bunga Xitoy xalqiningadolatli boshqaruvi, hukmdorga sodiqlik, hukmdorning odil ekanligiga ishonch bilan bog‘liq asrlar davomida shakllangan siyosiy tafakkuri sabab deyishimiz mumkin. Rivojlangan davlatlarning Xitoyda demokratiya va siyosiy erkinlik yo‘qligi haqidagi ayblovlari komunistik partiya ma’murlari “biz marksizmga asoslangan o‘z taraqqiyot yo‘limizga egamiz”, deya javob berishadi. Va nihoyat, marksizm kommunistik partiya uchun iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda dasturilamal vazifasini o‘taydi. Xitoy iqtisodiyotida bozor tamoyillariga katta e’tibor berilgani bilan davlat doimiy ravishda xususiy kompaniyalar mavjud bo‘lsa-da, mamlakat iqtisodiyotida etakchi hisoblangan yuzlab gigant korxonalar davlat tasarrufida faoliyat ko‘rsatadi. Hukumat ushbu tartibni iqtisodiy taraqqiyot ma’lum bir guruhlarning emas, balki avvalo xalqning manfaatlariga xizmat qilishi zarur, degan tamoyilning amaldagi ifodasi sifatida baholaydi.

Yigirmanchi asr o‘rtalarida marksizm Xitoyda keskin sinfiy kurashlarga sabab bo‘lgan bo‘lsa, ayni paytda u jamiyatni taraqqiyot yo‘lida birlashtiruvchi bosh g‘oya sifatida qabul qilinadi. Shu asosda ijtimoiyadolat va tenglikka ko‘proq e’tibor berish, jamiyatning turli qatlamlari manfaatlarini inobatga olish, boyliklarniadolatli taqsimlash

tizimini yaratish, aholining muhtoj qatlamlarini ijtimoiy himoya qilishga katta e'tibor qaratiladi.

Azaldan Osiyo xalqlari madaniyatida jamoa manfaatlarini shaxs manfaatlaridan ustun qo'yish ruhi ustuvor bo'lgan. Inchunin, turli ziddiyat va nizolarga berilmaslik, hokimiyat va hukmdorga sadoqat, siyosiy an'analarga hurmat ruhi xitoyliklar hayotida ham muhim o'ringa ega edi. Xitoy jamiyatida adolatli boshqaruv haqidagi qarashlar G'arb siyosiy madaniyatidan farqli ravishda, asosan hukmdorning odob-axloqi va odilligi bilan bog'liq tushunchalarini o'z ichiga oladi.

Har qanday mafkura ham vaqt-soati kelib yangilanishga, zamon ruhi va jamiyat talablariga moslashishga ehtiyoj sezadi. Ayni paytda Xitoyda ham hukmron mafkurani bugungi davr bilan uyg'unlashtirish dolzarb masala hisoblanadi. Vaqt o'tgani sari mamlakat g'oyaviy maydonida marksistik qarashlar bilan bir qatorda konfutsiychilik, daosizm kabi an'anaviy ta'limotlar ham ommalasha boshladi. Ayniqsa, bir necha ming yillik tarixga ega bo'lgan Konfutsiy g'oyalarining aholi orasida ta'siri orta boshladi.

XXI asr boshida Xitoyda Konfutsiy g'oyalarini hokimiyat legitimligini mustahkamlash va chetdan kirib kelayotgan begona qadriyatlarga qarshi vosita sifatida qo'llashga urinish ko'zga tashlana boshladi. Ya'ni, jamiyatda Konfutsiy ta'limoti globallashuv jarayonida milliy o'ziga xoslikni saqlab qolish va Xitoy g'oyalarini butun dunyoga yoyishda yordam berishi mumkin, degan fikr shakllandi. Lekin ochig'i, Konfutsiychilikning g'arb madaniyatiga qarshi qo'yilishi liberalizm bilan bir qatorda marksizm g'oyasi uchun ham o'ziga xos zarba bo'ldi. Chunki Konfutsiychilik tarafdarlarining fikricha, Yevropada paydo bo'lgan marksizm-leninizm g'oyalariga ergashish mamlakatning to'liq "g'arblasheviga" sabab bo'ldi. Ular bundan buyon g'arb siyosiy demokratiyasidan farqlanuvchi, "insoniy boshqaruv"ni amalga oshirishga imkon beradigan konfutsiyaytirish siyosatini yuritish zarurligini ta'kidlashmoqda.

Hukumat konfutsiychilik zamirida siyosiy barqarorlikning madaniy tayanchini qo'rmoqda. Xitoy kommunistik partiyasi esa

davlatchiligi tarixan u yoki bu mafkura asosida yashab kelgan. 90-yillarda olib borilgan mafkurasizlashtirish siyosati rus jamiyatining ma'lum darajada degradatsiyaga uchrashiga ham sabab bo'ldi. Mafkuraning Rossiya hayotidagi o'rnini yanada chuqur anglash uchun uning tarixiga qisqacha nazar solish lozim.

Kiiev Rusi (Rossiya davlatchiligi o'rta asrlarda dastlab shu nom bilan mavjud edi) knyazi buyuk Vladimir 988-yilda Vizantiyadan xristianlik dinining pravoslav shaklini qabul qiladi. Bundan maqsad slavyan xalqlarini yagona g'oya ostida bir davlatga birlashtirish edi. Shunday qilib, aynan xristianlikning pravoslav oqimi Kiev Rusining bиринчи rasmiy mafkurasiga aylandi. Pravoslav dini orqali Vizantianing g'oyaviy, siyosiy qadriyatlari ham Kiev Rusi hayotiga kirib keladi. Jumladan, Vizantiya imperatorining davlat hayotidagi absolyut hukmronligi, uning hokimiysi davlat mavjudligi kafolati ekanligi haqidagi qarashlar rus siyosiy madaniyatiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Shundan buyon rus va boshqa slavyan xalqlari dunyoqarashida hukmdorning muqaddasligi, uning hokimiyatiga shubha qilish mumkin emasligi bilan bog'liq absolyutizm qarashlari qat'iy qaror topadi. Bu qarashlar keyinchalik rus siyosiy falsafasida "samoderjavie" (yakka hokimyatchilik, yagona hukmdor hokimiyat) g'oyasi sifatida shakllanadi.

Asta-sekinlik bilan "samoderjavie" Rossiya hukmdorlarining asosiy qadriyatiga aylanib bordi. Buni Rossiya imperator-qirolichasi Yekaterina II ko'rsatmasiga binoan ishlab chiqilgan "Yo'l-yo'riq" (rus. "Nakaz")larda ham ko'rishimiz mumkin. Unda Yekaterina II yakka hukmdorlik ("samoderjavie") g'oyasini davlatchilikni shakllantirishning eng maqbul shakli sifatida talqin qiladi. Hujjatda yozilishicha: "Rossiyadek ulkan va ko'p millatli aholiga ega mamlakatda faqat oqil va dono yakka hukmdorgina qo'l ostidagi fuqarolarning manfaatlari uyg'unligini taminlay oladi. Boshqa turdag'i boshqaruv shakli Rossiya uchun zararli bo'lib, uning halokatiga sabab bo'ladi"¹.

¹ Наказ уложенной комиссии Екатерины II: <https://rusistori.ru/rossiyskaya-imperiya/nakaz-ulozhennoy-komissii-ekateriny-ii>



ROSSIYA: VATANPARVARLIK – YETAKCHI MAFKURA

Ba’zida “mafkuralar - bu o’tmish sarqitlari, eskirgan va keraksiz matoh” degan fikrlarga ko‘zimiz tushadi. Hozir ko‘pchilik insonlarga mafkura go‘yoki qandaydir sun‘iy, shaxsning xohishiga qarshi tashqaridan tiqishtiriladigan narsadek tuyiladi. Biroq, har qanday bino mustahkam tayanch bilan o‘z qaddini tutib tura olgani kabi, har bir jamiyat va davlat ham kuchli asoslarga ega mafkurasiz mo‘rt binoga aylanib qoladi. Jamiyat hayotini va iqtisodiyotni harakatlantirishda, ularning samarali faoliyat ko‘rsatishida mafkuraning o‘rni beqiyos.

Post sovet makoni davlatlarida bo‘lgani singari Rossiyada ham hanuzgacha mafkuraviy makon qanday bo‘lishi kerakligi, kommunizm mafkurasi yo‘qlikka yuz tutgach uning o‘rnida hosil bo‘lgan ulkan bo‘shliqni nima bilan to‘ldirish kerak degan masala yuzasidan bahsmunozaralar davom etib keladi. SSSRning qonuniy merosxo‘ri bo‘lgan Rossiya sobiq ittifoqning katta hududini, boyliklarini o‘zida saqlab qolgan bo‘lsada, ittifoqning boshqa respublikalari kabi kommunistik mafkuradan butunlay voz kechdi. 1990-yillar boshida kommunizm mafkurasining qayta jonlanishi mumkinligidan xavfsiragan Rossiya siyosiy rahbariyati har qanday davlat mafkurasini taqiqlash yo‘lidan bordi. Hukumat jamiyat hayotini mafkurasizlashtirish yo‘lidan yurdi. Bu siyosat davlatning bosh qomusi – Konstitutsiyasida ham aks etdi. Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasining I bo‘lim, 13-moddasida: “mafkuraviy xilma-hillik tan olinishi”, “hech qanday mafkura davlat mafkurasi sifatida majburan o‘rnatalishi mumkin emasligi” belgilab qo‘yilgan¹.

Vaqt o‘tishi bilan, mafkuraning jamiyat hayotida inkor qilib bo‘lmas o‘ringa ega ekanligi tushunib yetildi. Davlat ijtimoiy mavjudlik sifatida mafkurasiz samarali faoliyat yurita olmaydi. Rus xalqi va

marksizmni xitoylashtirishda Konfutsiy g‘oyalaridan samarali foydalanish bo‘yicha faol ish olib bormoqda.

Shu o‘rinda Xitoyning mamlakat taraqqiyoti yo‘lida bir-biriga mos kelmaydigan tushuncha va g‘oyalar o‘rtasida uyg‘unlikni topish yo‘lidagi muvaffiqiyatli harakatlarini e’tirof etmaslik mumkin emas. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Xitoy sotsialistik davlatlar orasida birinchilardan bo‘lib bozor islohotlarini amalga oshirdi. Mamlakat rahbariyati iqtisodiyotda sotsialistik va kapitalistik ishlab chiqarish turlaridan qay biri afzalligi haqidagi nazariy bahslarni bir chetga surib qo‘yib, bevosita amaliy ishlar bilan shug‘ullandi. Natijada G‘arb davlatlariga xos iqtisodiy taraqqiyot modeli mamlakat iqtisodiy siyosatining asosiga aylandi. Muvaffaqiyatli olib borilgan islohotlar tufayli tez orada Xitoy dunyoning ikkinchi raqamli iqtisodiyotiga ega davlat sifatida namoyon bo‘ldi¹. Qizig‘i, ana shunday sharoitda ham davlat iqtisodiy rivojlanishda yetakchi rolni o‘ynashda davom etmoqda.

Xitoy hukumati amaldagi siyosiy tuzum va g‘oyaviy qarashlarga nisbatan har qanday tanqid va chaqiriqlarga munosib javob berishga intiladi. Jumladan, Chin yurtida muntazam Amerikada inson huquqlari bilan bog‘liq vaziyat haqidagi qarshi hisobotlar e’lon qilib boriladi. Boisi, AQSh Davlat deapartamentining dunyo mamlakatlarida inson huquqlariga oid hisobotlarida Xitoy siyosiy va inson huquqlari poymol qilinadigan avtokratik davlat sifatida taqdim qilinadi. Xitoy tomoni esa o‘z hisobotlari orqali AQSh inson huquqlari masalasidan boshqa mamlakatlarning obro‘sini to‘kish uchun siyosiy qurol sifatida foydalanishi, uning xulosalari biryoqlama va asossiz ekanligini isbotlashga harakat qiladi. Ular Qo‘shma Shtatlarning o‘zida inson huquqlari bo‘yicha qalashib yotgan muammolardan ko‘z yumib, o‘zga

¹ Конституция Российской Федерации : // Официальный интернет-портал правовой информации.

URL: <http://publication.pravo.gov.ru/Document/View/0001202007040001?index=4&rangeSize=1>

¹ Скориков Владислав Виталиевич, Мансур Дария Нумман ПУТ КИТАЙСКОЙ НАРОДНОЙ РЕСПУБЛИКИ К ЭКОНОМИЧЕСКОМУ ЧУДУ // ЭСГИ. 2022. №1 (33). 91 б. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/put-kitayskoy-narodnoy-respublikii-k-ekonomicheskemu-chudu>

davlatlarning ichki ishiga aralashishga harakat qilayotganini ta'kidlashdan erinmaydi¹.

Xitoyda aholini rasmiy mafkuraga zid bo'lgan, xorijiy axborot manbalaridan kirib keluvchi turli yot g'oyalar va zararli axborotdan muhofaza qilish maqsadida Internet makonida "Oltin devor" deb nomlangan dastur ishlab chiqilgan. Shu tariqa davlat siyosati, g'oyaviy qadriyatlar va kommunistik partiya sha'niga gard yuqtiradigan axborotlarga taqiq qo'yildi. Internet foydalanuvchilari hukumat kiritgan cheklovlar sababli aksariyat hollarda xorijiy axborot manbalaridan foydalana olmaydi. Xitoyda chet el internet saytlaridan ham foydalanishga ruxsat beriladi. Biroq buning uchun tegishli ruxsatnomaga ega bo'lish lozim.

Ijtimoiy barqarorlikka putur etkazadigan har qanday ma'lumot jamiyat uchun zararli deb topilishi mumkin. Hozir Xitoyda 50 mingdan ortiq davlat xodimi internetdagi ma'lumotlar mazmunini kuzatib boradi².

Albatta, zamонавиу axborot jamiyatida hammaga bir xil nuqtai nazarni singdirish va ularni bunga amal qilishga majburlash deyarli imkonsiz ish. Xitoy ham bu borada boshqa davlatlardan deyarli farq qilmaydi. Biroq, hukmron partiya birinchi navbatda odamlarning asosiy masalalarda u bilan yakdil bo'lishini istaydi.

Xitoyning xalqaro maydonda qudrati oshib borgani sari uning dunyo mafkuraviy maydonidagi o'rni haqida turli taxmin va mulohazalar paydo bo'la boshladi. Ko'p yillar davomida Xitoyning mamlakat ichkarisidagi qiyofasi uning xalqaro maydondagi imijidan sezilarli ravishda farqlanib turar edi. Mamlakatda xitoycha xususiyatlarga ega sotsialistik mafkura asosiy o'rinni egallaydi. Biroq, Pekin rasmiylari mamlakat tashqi siyosatida mafkuraning o'rni masalasiga ehtiyojkorlik bilan yondoshishadi. Zamонавиу dunyoda

tobora ko'proq chekhanishi haqidagi havotirlar kuchaymoqda. Xitoyda Covid-19 pandemiyasi bilan bog'liq cheklov larga qarshi avj olgan ommaviy namoyishlar, kasallikdan zararlanib vafot etayotganlar soni tobora oshib borayotgan murakkab bir vaziyatda fuqarolar hayotini butunlay nazorat qilishga bo'lgan urinish aks ta'sirlarga sabab bo'lishi mumkin.

Aksariyat davlatlarda muvaffaqiyatsizlikka uchragan sotsializm g'oyasi Xitoyda istisno tariqasida natija berganiga xitoyliklarning umumiylar maqsad yo'lida birlashishga intilishi, mehnatkashligi kabi bir qator omillar sabab bo'ldi. Va eng muhim, marksistik-sotsialistik mafkura o'z vaqtida iqtisodiy taraqqiyotga xizmat qiluvchi g'oya sifatida qayta ko'rib chiqilgani bu borada hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi deyishimiz mumkin. Umuman olganda, sotsializm g'oyalariga asoslangan Xitoy taraqqiyoti tajribasi bugungi kunda inson qadr-qimmatini ta'minlashning eng muhim shartlari bo'lgan so'z erkinligi, shaxs erkinligi kabi qadriyatlarni davlat rivojlanishi jarayonida cheklash mumkin ekan degan yanglish tushuncha shakllanishiga sabab bo'lmasligi kerak.

Xulosa qilib aytganda, xalqning farovon hayotini ta'minlashga xizmat qiladigan iqtisodiy siyosat Xitoy mafkurasining muvaffaqiyatini ta'minlashga xizmat qilgan asosiy omillardan biri hisoblanadi. Vaqtida millionlab insonlar mamlakat rivojini ko'zda tutuvchi mafkura ostida birlashdi. Bu yo'lda erishilgan amaliy natijalar esa fuqarolarning davlatning bu boradagi siyosatiga bo'lgan ishonchini mustahkamladi. Jamiyatning iqtisodiy ravnaqiga xizmat qiluvchi mafkuraviy g'oyalar har qanday sinovlarga bardosh berishi mumkinligi Xitoy tajribasi misolida yana bir bor o'z isbotini topdi.

¹ China lists US human rights abuses worldwide, rebuts Washington's report, *Global Times*, URL: <https://www.globaltimes.cn/page/202204/1259255.shtml>

² Как устроен великий китайский файрвол, URL: <https://www.vedomosti.ru/opinion/articles/2018/04/25/767754-kak-ustroen-faeirvol>

notanish bo‘lgan har qanday yangilik va foydali narsalarni shundayligicha o‘zlashtirmasdan, uni “xitoylashtirib” qabul qilinishi e’tiborga loyiq. Modernizatsiya jarayonida universal milliy xususiyatlarni saqlab qolishga katta e’tibor qaratiladi. Bu borada Xitoydan o‘rnak olsa arziydi.

So‘nggi qirq yildan ortiq vaqt davomida Xitoy murakkab iqtisodiy va siyosiy yo‘lni bosib o‘tdi. Ushbu davr mobaynida uning iqtisodi zaif, o‘rtahol davlatdan dunyoning eng qudratli mamlakatlaridan biriga aylanishida tub mafkuraviy o‘zgarishlar muhim o‘rin tutadi.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, Xitoy mafkurasining asosini tashkil qiluvchi sotsializm, marksizm g‘oyalari uning rivojlanishida muhim o‘rin tutsada, XXR tashkil topgan dastlabki davrlarda, XX asrning 50-60- yillarida millionlab insonlar hayotiga zomin bo‘lgan “katta sakrash”, “madaniy inqilob” kabi siyosiy tajribalar ham aynan shu g‘oyalar ta’sirida amalga oshirilgan edi.

Mafkuraning butun jamiyat hayoti, uning kundalik turmushining har bir jabhasini total nazorat qilishga intilishi salbiy oqibatlarga olib kelishi bor gap. Buni 1978-yilga qadar marksizm mafkurasi jamiyat hayotini total nazorat ostida ushlab turishga harakat qilgan Xitoy misolda ko‘rishimiz mumkin. Buning oqibatida mamlakat rivojlanishda ortda qoldi. Iqtisodiy hayot turg‘unlashdi. Den Syaopin rahbarligida amalga oshirilgan islohotlar jamiyat hayotini erkinlashtirish, iqtisodiy siyosatni mafkuradan holi qilish, Xitoyning xalqaro maydonga ochilishi kabi muhim masalalarni o‘z vaqtida hal qildi. Natijada Xitoy barqaror rivojlanib hozirda dunyoning eng qudratli davlatlaridan biriga aylandi. Ammo ayni paytda Xitoyda mafkura orqali jamiyat hayotini to‘la nazorat qilish, uni yanada ko‘proq siyosiylashtirishga intilish kayfiyati yana kuchayganligi ko‘zga tashlanmoqda. 2012-yilda XXR raisligiga saylangan Si Szinpin Xitoy siyosatida oxirgi vaqtlarda shakllangan ikki marta saylanish bilan bog‘liq siyosiy an'anani buzib, 2022-yil oktabrdagi Kommunistik partiya syezdida uchinchiligi marta mamlakat rahbari bo‘lib saylanishga erishdi. Buning ortidan mamlakatda so‘z erkinligi bilan bog‘liq vaziyat yanada qattiqlashishi, fuqarolar huquqlari

kommunizm mafkurasiga nisbatan ishonchsizlik, salbiy munosabat shakllangan vaziyatda Xitoy tashqi siyosatda boshqa muqobil g‘oyalardan foydalanish masalasini ko‘rib chiqishga majbur. Ayni paytda xalqaro maydonda Xitoy hukumati mamlakat tashqi siyosatida mafkuraning o‘rni masalasiga ko‘p to‘xtalmaydi. Bu esa g‘arblik hamkorlar tomonidan Xitoya kuchli mafkura o‘rniga iqtisodiy manfaatlarga xizmat qiluvchi kuchli pragmatizm namunasi sifatida talqin qilinadi. Ammo Chin yurti vakillari allaqachon tashqi dunyoga mo‘ljallangan mafkura ustida bosh qotira boshlagan.

Hozirda jadal va barqaror rivojlanayotgan Xitoy tashqi siyosatida qanday mafkurani asosiy o‘ringa qo‘yish masalasi muhim ahamiyatga ega. Liberalizm g‘oyasi va demokratik davlat haqidagi tushunchalar sovuq urush yakuniga etgandan to bugungi kungacha dunyo g‘oyaviy maydonida asosiy o‘rinni egallab kelayotgan edi. Ammo ayni paytda liberalizm qadriyatları xalqaro maydonda muayyan qarshiliklarga yuzma-yuz kelmoqda. Liberalizm qadriyatları hozirgi kunda boshqa o‘sib borayotgan Yaqin Sharqdagi islom fundamentalizmi, Yevropa populizmi, Xitoy ananaviy qadriyatları kabi mafkuralar tomonidan chaqirqlarga duch kelmoqda¹.

Hozirda muttasil qudrati o‘sib borayotgan va AQShdan keyingi eng yirik xalqaro kuch hisoblangan Xitoyning mafkuraiy qadriyatları dunyo siyosatida liberalizm g‘oyasi o‘rnini egallashi haqidagi tahminlar ham oxirgi paytlarda ko‘p bildirilmoqda². Bunday fikrlar paydo bo‘lishiga Xitoyning barqaror iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlari, xalqaro siyosatda tinchlik ruhida birgalikda rivojlanish istagini bildirishi, zamonaviy texnologiyalar sohasida ulkan muvaffaqiyatlarga erishayotgani, pandemiyaning dastlabki davrlarida Yevropa davlatlari va AQShdan farqli ravishda virusni jilovlashda muvaffaqiyatli harakat

¹ Chinese Values vs. Liberalism: What Ideology Will Shape the International Normative Order?, Xuetong Yan, *The Chinese Journal of International Politics*, Volume 11, Issue 1, Spring 2018, Pages 1–22, <https://doi.org/10.1093/cjip/poy001>

² Xuetong Yan. *Leadership and the Rise of Great Powers*. Princeton: Princeton University Press. 2019. pp. 131–6.

qilgani kabi ko'plab faktorlarni keltirishimiz mumkin. Bugungi kunda liberalizm g'oyasi xalqaro maydonda qiyin davrni boshdan kechirayotgan bo'lsada, haligacha eng katta tasir kuchiga ega global mafkura bo'lib qolmoqda. Ayni paytda uning kuchli raqobatchisi mavjud emas.

Xitoyning liberalizm o'rniga muqobil mafkurani taklif qilishiga mamlakat elitasi ichida mafkura borasida yagona to'xtam mavjud emasligi to'sqinlik qiladi. Amaldagi Xitoy rahbariyati tashqi siyosatning mafkuraviy asoslarini belgilashda "umumiylar taqdir hamjamiyati", "uyg'unlikda rivojlanish" kabi g'oyalar, iqtisodiy pragmatizm yoki an'anaviy Xitoy qadriyatlaridan birini tanlash masalasida ikkilanmoqda. Fikrimizcha, iqtisodiy pragmatizm g'oyasi Xitoyning xalqaro ta'siri kengayishida muhim ahamiyatga ega. Sababi, iqtisodiy o'sishning real ko'rsatkichlari aksar hollarda Xitoy imijini ijobiy tomonga o'zgartirishga xizmat qiladi.

Xitoyning ichki hayotida hukmron mavqega ega marksizm g'oyasi mamlakat tashqi siyosatida ta'sir kuchiga ega emas. Sababi, marksistik mafkurada demokratiyaning inkor qilinishi, sinfiy kurash, inqilobning targ'ib qilinishi kabi g'oyalar bugun dunyoning demokratik jamiyat qurishga intilayotgan aksariyat mamlakatlari tomonidan mutlaqo qabul qilinmaydi. Buni to'g'ri tushungan Chin yurti rasmiylari marksizmdan tashqi siyosat quroli sifatida voz kechishgan.

Xitoy 1978-yilda dunyoga ochilish siyosatini yurita boshlagandan buyon ushbu g'oya tashqi siyosatda ustuvor vazifa sifatida tilga olinmaydi. Hozirgi paytda dunyo davlatlarining birgalikda tinch va barqaror rivojlanishiga erishish Xitoy tashqi siyosatining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Keyingi vaqlarda "Xitoy orzusi", "xitoycha xususiyatlarga ega yangi davr sotsializmi" kabi yangi g'oyaviy tushunchalar ham tez-tez tilga olinmoqda. Xususan, "Xitoy orzusi" zamirida dunyo xalqlarining o'zaro manfaatli hamkorligini ta'minlash, iqtisodiy barqarorlikka erishish va o'rtachadan baland turmush sharoitlarga ega bo'lish kabi maqsad va vazifalar yotadi.

Xitoyning xalqaro maydondagi qudrati tobora oshib borar ekan, har qanday global ta'sirga ega davlat singari uning g'oyaviy qadriyatlarini ham dunyoda ommalashtirishga ehtiyoj tug'ildi. Bugun Xitoy mafkurasini dunyoga yoyish maqsadida turli usullardan foydalilaniladi. "Til strategiyasi" shulardan biri hisoblanadi. 2014-yildan Si Szinpin g'oyalarini xalqaro miqyosda ommalashtirishga kirishildi. Uning "Davlat boshqaruvi to'g'risida" deb nomlangan kitobi ko'plab xorijiy tillarga tarjima qilinib, 6 milliondan ortiq nusxada nashr etildi. Ushbu loyihani rivojlantirish ishlari davom ettirilmoqda. Shuningdek, Konfutsiy instituti singari madaniy ta'sir markazlarining kuchidan ham unumli foydalanimoqda¹. Xitoyning g'oyaviy ta'sirini kengaytirishda "Bir kamar va bir yo'l" tashabbusi hamda ba'zi rivojlanayotgan mamlakatlarga kreditlar berish mexanizmi ham muhim vazifalarni bajaradi. Xususan, "Bir kamar va bir yo'l" loyihasining yutuqlarini tasvirlashda "yagona taqdir hamjamiyati" g'oyasi ko'p tilga olinadi². Bu g'oyaga ko'ra, dunyo davlatlari birgalikda tinch rivojlanishi va uyg'un dunyonı qurishda birgalikda harakat qilishlari kerak.

Shu o'rinda Xitoydagagi mafkuraviy manzara murakkab va bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini yana bir bor ta'kidlash o'rinnlidir. Bu yerda jamiyatda mustahkam qaror topgan tarixiy mafkura va g'oyaviy qarashlar milliy manfaatlar hamda Xitoy qadriyatları asosida zamonaviy tushunchalar bilan boyitib boriladi. Bu esa mamlakatda turli ijtimoiy bo'hronlardan, muayyan taraqqiyot usulidan boshqasiga keskin sakrashdan qochish imkonini beradi.

Mutaxassislar Xitoydagagi modernizatsiya jarayoni "vesternizatsiya" (g'arblashtirish)ni anglatmasligini ko'p ta'kidlashadi. Jamiyat uchun

¹ Бояркина Анна Владимировна. МЕСТО И РОЛ ИНСТИТУТОВ КОНФУЦИЯ В ПОПУЛЯРИЗАЦИИ И ПРОДВИЖЕНИИ В СТРАНАХ МИРА КОНЦЕПЦИИ "СООБЩЕСТВА ЕДИНОЙ СУДЬБЫ ЧЕЛОВЕЧЕСТВА" // Известия Восточного института. 2021. №4 (52). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/mesto-i-rol-institutov-konfutsiya-v-populyarizatsii-i-prodvizhenii-v-stranah-mira-konseptsiyi-soobschestva-edinoy-sudby>.

² Грузинов Иван Ильич. Возможности и проблемы экспорта современной китайской идеологии // Общество и государство в Китае. 2018. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/vozmozhnosti-i-problemy-eksporta-sovremennoy-kitayskoy-ideologii>